

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

IV KURS KUNDUZGI BO'LIM BITIRUVCHISI

NING

“ASQAR MAHKAM - ISTE'DODLI SHOIR”

mavzusidagi

**5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) yo'nalishida bakalavr
ilmiy darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015-2016 - o'quv yili)

Ilmiy rahbar: _____

Buxoro - 2016

REJA:

KIRISH

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

I BOB. ASQAR MAHKAM - ISTE`DODLI SHOIR

1.1.Asqar Mahkam hayoti va ijodi haqida

1.2.Shoir she`rlarining badiiy xususiyatlari

II BOB .ASQAR MAHKAM - DOSTONNAVIS

2.1.Shoirning Boburga bag`ishlangan dostoni tahlili

2.2.Asqar Mahkam dostonlaridagi badiiy san`atlar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqil bo'lgach, barcha sohalar erkin ravishda bosqichma-bosqich modernizatsiya qilina boshladi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov "Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimiz xalqaro hamjamiyat tan olgani bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz¹", – deb to'g'ri ta'kidlagan edilar.

Muhtaram Yurtboshimiz istiqlol adabiyoti oldida turgan vazifalarni, xususan, bashariy qadriyatlar yaratishdek mas'ul burchini alohida ta'kidlayotgani bejiz emas: "Ijod-bu o'zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma'noda fidoyilik demakdir. Chinakam ijodkor odamlarning dardu g'ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o'zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo'layotgan o'zgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz²". Darhaqiqat, istiqlol davri badiiyatining istiqbolini yangi tarix yaratayotgan millatning o'tmishi, buguni va kelajagi tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ana shunday har tomonlama yetuk insonlarni tarbiyalashda boshqa sohalar kabi ta'limda ham yangidan-yangi va jiddiy vazifalar qo'yilmoqda. Yoshlarni mustahkam bilim asoslari bilan qurollantirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, har bir narsaga, atrof-muhitga ijodiy va ongli yondashish ko'nikmalarini hosil qilish shu kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Komil insonlarni shakllantirishda g'oyaviy, axloqiy, nafosat ta'sir kuchini o'zida mujassamlashtirgan badiiy asarga xos tasviriy

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T: "O'zbekiston", 2000.43-bet

² Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor –ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T: "O'zbekiston", 2009. 26- bet

vositalar, o'ziga xos xususiyatlar o'quvchiga tushunarli bo'lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sir kuchi to'liq namoyon bo'ladi.

Asqar Mahkam asarlari ham yoshlarning badiiy saviyasini yuksaltirishda o'z o'rniga ega bo'lib, uning she'rlari tasavvuf nuqtai nazaridan alohida tahlilni talab qiladi. Shoirning so'z tanlash mahorati, ularni o'z o'rnida qo'llashi, takrorlanmas jozibaga ega misralar har bir kitobxonni qiziktirmay qolmaydi. Shoir Tojikistonda tug'ilgan bo'lsada o'zbek xalqi bilan birlikni hosil qilgan, ijodiy faoliyati ham O'zbekiston bilan bog'liq she'rlarining asosiy qismi o'zbek tilida yozilgan. Uning Bobur Mirzoga bag'ishlangan dostoni boshqa dostonlardan til xususiyatlari, so'z tanlash mahorati, badiiy tasvir vositalarining ko'pligi bilan o'quvchini o'ziga jalb qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Asqar Mahkam hayoti va ijodini o'rganish asosan mustaqillikdan keyingi yillarda ayniqsa yuksalganligini kuzatishimiz mumkin. Asqar Mahkam ijodini o'qish kitobxondan alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Shoir she'rlarining asosiy qismi tasavvufiy ruhda yozilgan bo'lib, ularda hayot haqiqatlari tasavvufiy nuqtai nazardan yorqin tasvirlangan. Asqar Mahkam hayoti va ijodi haqida Alisher Narzullo, Nabijon Boqiy, Loyiq She'rali, Ikrom Otamurod, Xurshid Davron, Ne'matullo Ibrohim va boshqa ijodkorlar turli maqolalarda ma'lumot berganlar.

Alisher Narzullo "Har lahzada tazarru"³, Nabijon Boqiy "Asqar Mahkam Kofarnihonga qaytdi."⁴, "Bolalikdan bolalikka qaytgan shoir", Loyiq Sherali "Jomi sarshoh"devoni'', Ikrom Otamurod "Men endi ketarman pinhon va yolg'iz"⁵, Xurshid Davron "Osmonga talpingan shoir"⁶, Ne'matullo Ibrohim "Men shoir

³ Alisher Narzullo "Har lahzada tazarru" www.ziyo.uz.

⁴ Nabijon Boqiy "Asqar Mahkam Kofarnihonga qaytdi.", "Bolalikdan bolalikka qaytgan shoir" www.Literatura.uz

⁵ Ikrom Otamurod "Men endi ketarman pinhon va yolg'iz" www.ziyo.uz

⁶ Xurshid Davron "Osmonga talpingan shoir" www.literatura.uz

emas shunchaki rostgo'y edim ⁷ ” kabi maqolalarda ma'lumotlar berganlar. Yuqoridagi maqolalar faqat shoirning hayot yo'llari, ijodi haqida bildirilgan fikrlardan iborat bo'lib, ular xotira maqolalar bo'lib hisoblanadi. Bu maqolalarda shoirning ijod olami, asarlarining badiiyati, bundan tashqari Asqar Mahkamning oddiy inson sifatidagi o'y xayollari, insoniy xislatlari tasvirlanadi. BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi D. Quvvatovanning “Istiqlol davri o'zbek poemalarining poetik sintaksisiga xos ba'zi jihatlari”, “Tavajjuh” poemasida maktub – monolog”⁸ nomli ilmiy maqolalarida Asqar Mahkam she'riyati va dostoni o'rganilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Asqar Mahkam ijodini, she'riyati va dostonlarini yaxlit holda o'rganishdan iborat. Biz mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdik:

- Asqar Mahkam asarlarning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini aniqlash;
- Asqar Mahkam lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Shoir dostonlarining badiiy xususiyatlarini tekshirish ;
- Asqar Mahkam asarlarining mavzular olamini kuzatish;
- Shoir ijodi haqida ma'lum umumlashma xulosalarga kelish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Asqar Mahkam asarlarini monografik tarzda yaxlit o'rganilmaganligi ishning yangiligini belgilaydi. Asqar Mahkam asarlari to'la o'rganilmaganligi sababli ham ularning til xususiyatlari, mavzular olami, tasavvufiy timsollar tasnifi, dostonlarining badiiy xususiyatlari kabi masalalar tahlilga tortildi.

⁷ Ne'matullo Ibrohim “Men shoir emas shunchaki rostgo'y edim ” www.ziyo.uz.

⁸ Д.Кувватова. «Таважжух» poemasida maktub-монолог» Филология масалалар 7. Тошкент: "Фан" нашриёти, 2013, 288 бет, 90- 93- бетлар.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va ilmiy metodi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning milliy istiqlol mafkurasini qaror toptirish, adabiy –madaniy merosimizni o'rganish , targ'ib va tadqiq qilishga oid asarlardagi ko'rsatmalari, I.Sulton, O.Sharafiddinov, I.G'afurov, U.Hamdam kabi olimlarning qarashlari bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini tashkil qiladi. Asqar Mahkam she'rlari va dostonlarini o'rganishda ilmiy bilishning kuzatish, taqqoslash, tahlil etish, umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Ishning joriylanishi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. U Buxoro Davlat Universitetining "O'zbek tili va adabiyoti " kafedrasining kengaytirilgan yig'ilishida muhokama etilib , himoyaga tavsiya etilgan.

I bob. Asqar Mahkam - iste'dodli shoir

1.1. Asqar Mahkam – hayoti va ijodi haqida

Asqar Mahkam - hozirgi zamon o'zbek she'riyati namoyandalaridan biridir. Shoir 1958-yil 27-noyabrda Tojikistonning Kofarnihon tumanida tug'ilgan. Asqar Mahkam o'zining yoshlik davrini eslab, bu darajaga yetishuvida juda ko'p insonlarning hissalarini qo'shilganligini alohida e'tibor bilan ta'kidlaydi. O'zining tarjimai holini badiiy tarjimai hol tarzida tasvirlaydi va quyidagilarni yozib qoldirgan: "Nomu nasabini lo'nda qilib «machchoyi» (Shimoliy Tojikistonning tog'li muzofotida yashovchi xalq, asli mastchohlik)ning «samjun» urug'iga mansubligini ahyon-ahyon eslatib turadigan buvim Nigorbibi bo'lmaganida ehtimol mening go'dakligim va bolaligim «sho'ro yetimxonalari»da kechgan bo'lardi⁹."

Asqar Mahkam o'zining yoshlik chog'larini achinish bilan xotirlaydi. Uning hayoti juda mashaqqatli, musibatli o'tgan bo'lib, uning tarbiyasida buvisi Nigorbibining o'rnini juda katta.

Asqar Mahkam ham yetimlikning sargardonliklarini o'z xotiralarida achinish, alam bilan eslaydi: "Otam Abdurahmon (Olloh rahmat qilsin) fojiali halok bo'lganda akam yetti yashar, opam besh yashar, men uch yashar, ukam bir yashar edik... Onamiz turmushga chiqib ketgach, kampir buvimiz bizni o'gay ota qo'liga bermagan. Men yetimlik, judolik, og'ir mashaqqatlar yoshiga qorilgan bu marhamati uchun Ollohga hamdlar aytaman." Shoir yoshlik chog'larini eslab, she'rga, adabiyotga bo'lgan muhabbat o'sha paytlardan boshlanganligini aytib o'tadi: "Bolaligim Kofarnihon sohillarida mol boqish, tappi terish, ekin-tikin va paxta terish bilan o'tdi. She'r «jin chalgandek» o'sha paytda yopishdi. Albatta, o'shanda nechog'li dahshatli ishga qo'l urayotganimni bilmaganman. O'rta maktab, keyin Xo'jand dorilfununining tarix va adabiyot kulliyoti yana qishloq va

⁹Yusufali Shonazarov. Goh so'yladik uryon, gohi munaqqa. www.ziyo.uz

nihiyat Toshkent...¹⁰ .” Asqar Mahkam she`riyatni o`zining qismati ekanligini, so`zning qudratini, uning ilohiyligini his qilib yashash kerakligini, she`rni duo yoxud duoni she`r deb aytish ayni muddao bo`lar edi deb so`zning qudratini yuqori darajada baholagan: ”She`r men uchun qismatning o`zi edi. Qog`ozdagi she`r bu hali she`r emas. Unda asosiysi — jon va ruh yo`q. Dunyodagi jamiyki ilohiy dasturlarning qog`oz yoxud boshqa bir ashyoga qayd etib qoldirilishi qat`iyan man etilganining boisi ham shunda. Harchand ta`sirli bo`lmasin so`z o`quvchiga nafas orqali yetganda o`z burchini ado etadi. Bordi-yu she`rni duo yoxud duoni she`r deb tasavvur qilsak muddao yanada ravshanlashadi.” Shoir so`z va ruhning bir butunligi haqiqiy she`rni yaratilishiga asos bo`ladi. She`r yozish jarayonini esa ibodat qilishga teng. She`riyat ummonida iymoni butun shiorlargina umrboqiy bo`ladi, dabdababozlik, shuhratparastlik orqasidan yozilgan she`rlarning qimmatini esa vaqt sinovidan o`tolmaydi. Asqar Mahkam she`rlari ham umrboqiylikka dahldor. Ushbu masala yuzasidan shoirning fikrlari diqqatga sazovor: “So`z va ruh bilan yolg`iz qolgan shoir iymonli bo`lsa, bu jarayon ibodatdir. Agar bordi-yu so`z bilan yolg`iz qolgan shoir jismida nafsoniyat ustun bo`lsa, bu aysh va shaqovat. Undan ham battar — fitna va buzg`unchilik bo`lishi mumkin. Iymonli so`z va ruhning bir vujudga kechadigan umri xayrli toat bo`lib, o`z sohibini ezguliklar sari eltadi, o`zgalarga ham yaxshilik keltiradi. Zero, bu ibodat duolari ijobat bo`ladi.

Shoir ijodining gullagan davrlarida u ijod olamida o`zining tasavvufiy she`rlari bilan oddiy xalqona uslubdagi dostonlari bilan adabiyot ahlini bahramand qildi. Asqar Mahkam "Navro'z", "Ibodati", "Ishq", "Tavajjuh", "Tazarru", "Haq", "Analhaq" she'riy to'plamlari muallifi. Shoir Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" kitobining birinchi daftaridan ayrim juz'larning sharhli tarjimasini va zardushtiylarning buyuk yodgorligi "Avesto" kitobini, Xoja Abdulloh Ansoriyning "Kashf ul- asror"(Quroni Karimning adabiy irfoniy tafsifi)asarini o'zbek tiliga mahoratli tarjima qildi. Xoja Hofiz Sheroziy, Shams

¹⁰ Xurshid Davron .Osmonga talpingan shoir.www.ziyo.uz

Tabriziy, Imom Xumayni, Sayyid Muhammad Shahriyor, Parvin E'tisomiy, Nodir Nodirpur, Nimo Yushij, Doktor Parviz Notil Xonlariy, Hushang Ibtihof Soya kabi klassik va zamonaviy fors shoirlari she'riyatidan tarjimalar ham shoir qalamiga mansub. Asqar Mahkam Xoja Abdulloh Ansoriyning Qur'oni Karimga yozgan adabiy-irfoniy tafsirini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Asqar Mahkam o'zbek adabiyotini Ahmad Yugnakiydan Abdulla Orifga qadar, tojik adabiyotini Ro'dakiydan Loiqqa qadar o'rganib chiqqan, Qur'on tafsiri va hadis ilmini puxta o'zlashtirgan ijodkor sifatida ulkan haqiqatni anglab yetgan ijodkor edi. U ana shu Haqiqat uchun shoir o'zini qurbon qilishga-da tayyor holda yashardi. Uning Xudoga muhabbati, odamzotga yuksak ehtirom va nafrati, yorqin tafakkurga qorishib ketgan hissiyoti, quvonch va iztirobi cheksiz va chegarasiz edi. Bunday holatni faqat daho ijodkorlardagina kuzatish mumkin, xolos.¹¹

Shoirning zamondoshi, iste'dodli shoir Ne'matullo Ibrohim ham jafokash shoir Asqar Mahkam haqidagi "Men shoir emas, shunchaki rostgo'y edim" nomli maqolasida shoir haqidagi xotiralarni ko'z oldidan o'tkazadi: "Asqar Mahkam ijodda zo'rakilikni yomon ko'rardi. Cheksiz tafakkurli ijodkor ekani uchunmi, uning she'rlari ba'zan haddan tashqari uzun bo'lib tugardi. Dostonga o'xshab ketadigan she'rlari ham ko'p. Darhaqiqat, Asqar Mahkam adabiyotimizning eng tafakkurli shoiri edi¹²."

Asqar Mahkamning "Haq" deb nomlangan 500 sahifalik saylanmasi Dushanbedagi "Adib" nashriyotida bosmadan chiqqan. Keyinchalik 2003 yil shoirning 450 sahifalik "Analhaq" kitobi Toshkentda (Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq Merosi nashriyotida) nashrdan chiqqan va uning 100dan ortiq ruboiylari shu kitobiga kiritilgan.

Asqar Mahkam o'z ruboiylarida boshqa asarlariga qaraganda aytolmagan fikrlarini go'zal shakl va ohangdor, ixcham misralarda bayon etgan. Bu ruboiylarida shoir orifona majoz va tamsillari bilan, tafakkuri va hissiyotining

¹¹Nematulla Ibrohim. Men shoir emas shunchaki rostgo'y edim. www.ziyo.uz

yuksak maqomdagi tajassumi bilan ijoddagi o'ziga xosligini yana bir bor isbotlaydi.

Asqar Mahkamning “Haq” kitobini o`qib chiqqan shoir Sayyid Ne'matulloh Ibrohim ham shoirning yuksak badiiy mahoratini yuqori baholagan : “Asqar Mahkam o'z asarlarida Insonni bor murakkabligi bilan tasvirlaydi.Yuzaki tavsif etish uning ruhiyatiga yotdir.Boshqacha qilib aytganda, u insonni nafrat bilan sevadi, inkor bilan e'tirof etadi, og'u bilan davolashga, alam bilan shodlantirishga intiladi¹³.”

Shoirlik Asqar Mahkam uchun kasb emas, balki doimiy yurak dardidir. U hech qachon she'rni shunchalik mahorat ko'rsatish uchun yozmadi.

Asqar Mahkam o'z she'rini hikmat darajasiga ko'tara olgan shoirlar toifasiga mansubdir.

Shoirning“Haq” kitobidagi she'rlar milliy ruhning sadolaridir. Bu sadolar mehrsizlik, diyonat va xiyonat, baxt va baxtsizlik, ofiyat va ofat oralig'ida yashayotgan odamlarni bir zum hushyor torttiradi, hayot va o'lim, bandalik va g'aflat, iymon va inson, suvrat va siyrat, moziy va kelajak haqida tafakkur qilishga undaydi. Asqar Mahkam Do`rmon yozuvchilar uyushmasida faol harakat olib bordi. Asqar Mahkamning she'rlari, rostdan ham, Odamning iztiroblari. Asqar Mahkam jiddiy shoir edi, millatimizning nomusi edi, ori edi.

Asqar Mahkam haqida yana bir zamondosh shoirlardan biri Odil Ikrom shoirning hayot yo`li,ijod olamining o`ziga xos xususiyatlari va oddiy bir inson sifatidagi mulohazalarini o`zining “Qahraton qishlarda vidolar aytdim ...”nomli maqolasida batafsil bayon etadi: “Asqarali aka juda kam umr ko`rdi.Ko`rgan kam umrida ham yorug` kunlari sanoqli edi.Balki, shuning uchundir, tunni yaxshi ko`rardi, suhbatlarimizda tunni “farishtasifat holat” derdi.Darhaqiqat, tunda odam barcha niqoblardan xoli ko`ngil hayotini boshdan kechiradi¹⁴.” Asqar Mahkamning ilk kitobi “Odam” deb nomlagandi,lekin ma`lum bir sabablarga ko`ra asarni “Navro`z” deb o`zgartirishdi.Asqar Mahkam ijod ahlini bir muhit, bir maslak

¹³ Ne`matullo Ibrohim .Men shoir emas shunchaki rostgo`y edim www.ziyo.com.

¹⁴Odil Ikrom . Qahraton qishlarda vidolar aytdim.www.leks.uz.

atrofida birlashtira olgan, 1983-85 yillarda shoirning sharofati bilan yaxshi adabiy muhit paydo bo'lgan.

Asqar Mahkam haqida shoir Ne'matullo Ibrohim Asqar Mahkamning "Haq" kitobiga yozgan so'zboshisida shunday deydi: "Asqar Mahkam o'z asarlarida Insonni bor murakkabligi bilan tasvirlaydi. Yuzaki tavsif etish uning ruhiyatiga yotdir. Boshqacha qilib aytganda, u Insonni nafrat bilan sevadi, inkor bilan e'tirof etadi, og'u bilan davolashga, alam bilan shodlantirishga intiladi...¹⁵". Loyiq She'ralining "Shoir qadri" she'ri shoir haqidagi haqqoniyatga daxldor misralar edi. bir kun kelib albatta she'r va odamiylik mulkida o'ziga xos hodisaga aylangan Asqar Mahkam o'zining bundan-da balandroq qadrini topadi:

*Oshiqlar oh tortsa xayolga botib,
Zo'rlar ham yig'lasa hayron, lol qotib,
Do'stlar bir-birini ketganda sotib,
o'shanda bilinar shoirning qadri.*

*Osmonda bir yulduz yonsa damodam,
Yerda bir yosh yurak tutganda motam,
o'zidan o'zini axtarsa odam,
o'shanda bilinar shoirning qadri.¹⁶*

Asqar Mahkam haqidagi fikr va mulohazalarini Xurshid Davron ham o'z munosabatlarini bildirganlar, shoir ijodini yuksak baholab uni o'rganish har bir adabiyot ixlosmandi uchun muqaddas burch kabi bo'lishini orzu qiladi: "Shoir o'limidan keyin kechgan vaqt bir paytlar shoirga ham ustozu ham akaday aziz bo'lgan Shavkat Rahmon "Vatan" gazetasida bosilgan bir suhbatida "Asqar Mahkam - qattiq iymon shoiri"¹⁷, - deb yozganida qanchalar haq bo'lganini to'liq isbotladi. Shoirning 50 yilligiga uning nasriy asarlari bitilgan "Oq kitob"i

¹⁵ Аскар Маҳкам. Ҳақ. "Адиб", Душанбе. 1998. – 26 б.

¹⁶ Loyiq Sherali. She'rlar. 2000. "Fan", 34-bet.

¹⁷ Shavkat Rahmon .Asqar Mahkam qattiq iymon shoiri. Vatan , // 67-son. 5-bet.

Dushanbeda nashr etildi. “Oq kitob” o'zbek adabiyotida birinchi bor chor Rossiyasi istibdodiga qarshi isyon ko'targan andijonlik Dukchi Eshon (Muhammadali Muhammad Sobir) haqidagi “Dor” romani bilan boshlanadi. Shuningdek, Shavkat Rahmon ijodi haqidagi “Adabiyotga ibodat” , “So'nggi darvesh” she'riy-nasriy qissasi, tojik shoiri Loyiq haqidagi “Xaloyiq! Shoirni tuproqqa qo'yishmoqda” badiasi va boshqa adabiy tadqiqotlari ham bu kitobdan joy olgan.

Shoir uzoq yillar mobaynida Rumiyning “Masnaviy”sini sharhlari bilan to'liq tarjima qildi. Olti fasldan iborat “Masnaviy”ning birinchi fasli shoir hayotlik paytida, ikkinchi fasli uning vafotidan so'ng nashr etildi. Asqar Mahkam ijodi o'zbek kitobxoni tomonidan to'la kashf ham, to'liq idrok ham etilmagan. Oxir-oqibat shoirning yuksak she'riyati lovullab turgan vulqon kabi yuraklarni larzaga soladi, asl she'riyatni sog'ingan sonsiz insonlar uning hayratiga,hasratiga sherik bo'ladi.

Asqar Mahkam haqida shoir va nosir Ikrom Otamurod “ Men endi ketarman pinhon va yolg'iz...” nomli maqola yozgan .Ushbu maqolada ijodkor shoir haqidagi iliq fikrlarni va hayot yo'llari haqidagi mulohazalarini keltirgan . Quyida ushbu maqoladan parcha keltirdik:

“Asqar Mahkam poytaxtga ijodkor bo'laman, degan murod bilan kelgan edi.Uni ana shu niyat ijodkorlar olamiga boshlagandi.U ijodkor bo'ldi.Katta-katta dostonlar yozdi.Katta-katta tarjimalar qildi.So'zning mashaqqatini, so'zning mohiyatini, so'zning ulug'ligini qalbiga joyladi va shu sobitlik bilan yashab o'tdi¹⁸.”

Asqar Mahkam va Shavkat Rahmon ijod yo'llarida va hayot yo'llarida o`xshash tomonlar juda ko`pdir. Shavkat Rahmon ham Asqar Mahkamga mehr qo`ygan shoir edi. Ular tug`ishgan og`a-inidan ham yaqin bo`lishgan .Tug`ishgan og`a-ini bir-biri bilan jismoniy jihatdan yaqin bo`lsa, ular ruhan yaqin edi, ma`nan maslakdosh edi. Maslak deganda ular Vatan, Millat taqdirini tushunishardi.Shoir Shavkat Rahmon to`g`risida ham maxsus risola yozdi. Asqar Mahkam Tojikistonning haqiqiy farzandi , O`zbekistonning zabardast shoiri edi.Shoirning

¹⁸ Ikrom Otamurod .Men ketarman endi pinhon va yolg'iz .www.ziyo.uz.

she'rlari halovatimizni buzadi, vijdonimizni bedor qiladi, uyg'otadi. Shoirning she'rlari har kuni o'qiladigan she'rlar emas, ular umr bo'yi o'qiladi, umr bo'yi shoirning kitoblari hayotimizni yoritib turuvchi quyosh misoli yoritib turadi.

Asqar Mahkam qismat peshonasiga she'r yozish bitilganligini quyidagi misralarda bayon etadi:

Kofarnihon kabi yillarim o'tdi,

O'tgan kunlarimning tirik ruhiman .

Qismat peshonamga qissalar bitdi,

Men shul qismatimning qissago'yiman.¹⁹

Asqar Mahkam ulug' va buyuk shoir Shavkat Rahmon haqida "Adabiyotga ibodat" esse-xotira yozgan va unga Shavkat Rahmonning

"Ey Gulim, Ko'zlarga yoshlar to'lganda

Soyamiz qo'shilgan damlarni eslang!"

satrlarini epigraf qilib olganida ustozini mozorida unib chiqqan qizg'aldoqni ko'z o'ngiga keltirgan edi deb aytsak xato bo'lmaydi.

Asqar Mahkam ilk she'ri tug'ilgan kun kunini o'z xotiralarida shunday eslaydi: "Bola she'rning tug'ilishi qorning ostidan boychechakning "lop" etib chiqishidek hayratli va sirli ekanini o'shanda sezgandek bo'ldi. She'rning tug'ilishi ham olamning yosharishiga o'xshaydi" – deb yozadi u yillar o'tib.²⁰

Adabiyot so'fiylik emas. Ammo, u ham komillik istagan inson yo'lidir. Bu yo'lda ham qalb, ham e'tiqod uchun sinovlar bor. Chinakam ijodkor Simurg'ni izlagan qushlar kabi yetti sinov vodiysi orqali yagona maqsad sari — buyuk haqiqatni anglashga intiladi. U ijodning mashaqqatli dovonlaridan o'tib, o'zligi tomon yo'l qidiradi, men ma'nosini izlaydi. Oxir-oqibat Simurg'ni izlagan

¹⁹ Xurshid Davron . Osmonga talpingan shoir. www.ziyo.uz.

²⁰ Asqar Mahkam . Men yarmi – fors , yarmi turkiyman. www.leks.uz

qushlar o'zlik sari borib, Simurg' ularning o'zlari ekanligidan xabardor bo'lganlaridek, o'zligini Haqning uyi –qalbidan topadi. Insonning, shu jumladan, qalam ahlining komillikka intilishi, eng avvalo, Mir Alisher bobomiz nasihat qilganlaridek “qushki yerdin yuqori uchqay, agarchi osmonga yetmagay, ammo tomdin yiroq bo'lg'ay”.Asqar Mahkam ana shunday osmonga talpingan ijodkor edi.²¹

O'zlikni idrok etish barobarida Vatan, Millat va Iymonni anglash – shoir she'rlarining yetakchi g'oyasiga aylandi. Iymon, Vatan va Millatni anglash qalbning buyuk iztirobiga aylandi. Bu qayg'u zamonning eng qora soatlarida ham boqiy musibatdan emas, sevinchdan darak berdi. Zero, hazrat Mir Alisher Navoiy nasihat qilganlaridek:

Falakdan gar senga har lahza yuz qayg'u kelur o`tru,

Agar har qayg`udin so`ng bir sevinmoq bor, emas qayg`u²²

Asqar Mahkam ,eng avvalo, Allohni tanimagan, uning ma'rifatini bilmagan odam ilohiy olam sirlarini hech qachon tushunolmasligini angladi. Allohni -Haqni bilgan odam esa, albatta, o'zining ham azizu mukarram mavjudot, insoniylik – ma'naviyati manbai ekanligini tushuna boshlaydi. Buni tushuna boshlagach esa, odam o'zidagi yomon fe'l-atvor, tuban qiliqlar, baxillik, ichi qoralik, badnafslilik, boshqa insonlarga jabr-zulm qilish, kibru havo, jahl-g'azab insoniylikka mutlaqo zid, odam tabiatiga nomunosib ekanligini anglashga yetadi. Bu tushunchalar Asqar Mahkamning dastlabki to'plamlaridayoq yaraqlab ko'rina boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyot sarhadiga kirgan har qanday inson o'zini tushunadigan, angelaydigan suhbatdoshni izlaydi. Shoir qidirgan suhbatdoshini Shavkat Rahmon shaxsiyatida topdi. Ikki ijodkor salohiyatu salmoqda farqlidir, ammo, mohiyat va e'tiqod masalasida bir nuqtada turgan shoirlar bo'lib sanaladi.

²¹Xurshid Davron .Osmonga talpingan shoir .www.ziyo.uz.

²² А. Навоий. Махбуб ул қулуб. Мукаммал асарлар туплами 14-жилд. “Фан”,Т.: 1998. 47- б.

Bu nuqta yurak va iymon yaqinligida edi. Bu ruhiy yaqinlik Asqar Mahkamning “Shavkat Rahmon” she’rida yorqin namoyon bo’ladi:

Shoirlar bir kuni o`limdan oldin,
Shundayin bir she`rni ketarlar aytib,
“Mendan so`ng ortimdan to`g`ri so`z qolsin,
Endi men hech qachon kelmayman qaytib
Oy dedim qachonlar sariq ilonni ,
U zarrin zahrini quydi ,bo`g`zimga ,
Mukammal ko`ray deb bandi insonni .
Men xanjar sanchganman tunlar ko`ksimga ...²³

Shavkat Rahmon ham yosh do’stining yuksak e’tiqodli inson ekanini birinchilardan bo’lib sezib “Asqar Mahkam – qattiq iymon shoiri” deya e’tirof etgan.

Yana bir muhim masalaga e’tibor qaratish lozimki, bu ijodkordagi iste’dod va e’tiqod masalasidir. Ijodkor noyob iste’dod egasi bo’lishi barobarida iymonsiz, e’tiqodsiz bo’lishi mumkin emas. Kamdan-kam ijodkor jur’at eta oladigan, ulkan salohiyat va teran islomiy bilim, uzoq yillik mashaqqatli mehnatni talab qilgan amal — “Masnaviyi ma’naviy” tarjimasini boshlashida ham Asqar Mahkamning e’tiqodi va salohiyatida namoyon bo’ladi. Asqar Mahkam mavlono Jaloliddin Rumiyni “Ma’naviy masnaviy” asarini tarjimasida o’ziga xos va mos kamchiliklar va yutuqlarga erishgan desak adashmagan bo’lamiz. “Masnaviy” tarjimasidagi kamchilik Asqar Mahkam she’rlariga ham xos jihat, ya’ni forsiy so’zlarni me’yoridan ortiq qo’llashda namoyon bo’ladi . Albatta, «Masnaviyi ma’naviy»ni asliyat darajasida tarjima qilish imkonsizdir. Boshqa bir tomondan

²³ Asqar Mahkam .Adabiyotga ibodat.www.ziyo.uz.

olganda esa Asqar Mahkam tarjimasini oldingi tarjimalar bilan qiyoslaganda, oldinga tashlangan qadam ekanligini, Mavlononi anglash yo'lidagi keyingi urinishlar uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi aniq. Najmiddin Komilov "Masnaviy" tarjimasining o'ziga xos jihatlari haqida shunday yozadi: "Iste'dodli shoirimiz Asqar Mahkam "Ma'naviy Masnaviy" tarjimasiga qo'l uribdi. Bunga uning haqqi bor. Chunki Asqar Mahkam o'zi so'fiyona she'rlar yozib yurgan, qalbida Rumi g'oyalari jo'sh urgan odam. Asqar Mahkam ishining fazilati va foydali tomoni shundaki, u faqat Rumi baytlarini tarjima qilish bilan chegaralanmagan. Balki, turkiyalik atoqli rumiyshunos olim Mavlono Obidin Poshsho sharhini o'zbek tiliga tabdil etib keltiribdi. Boshqacha aytganda, Asqar Mahkamning ishini ijodiy va tadqiqotiy ish desa bo'ladi. Umuman, bu o'rinda shoir qadimgi shoirlar an'anasi saqlangan, ya'ni: avval original bayt keltiriladi, keyin uning nazmiy tarjimasini, so'ngra lisoniy-nasriy tarjimasini beriladi.²⁴ "Masnaviy" tarjimasining mashaqqati shoirni yangi bir insonga aylantirdi, ijodida ham yirik burilish yasadi. Asqar Mahkamni umuman boshqa bir odamga aylantirdi. Bu haqidagi fikrlar shoirning she'rlarida ham uchratish mumkin:

Xazonga yuz Burgan terak tagida,

Asqarni tark etdi. Asqar umrbod.

"Asl she'rni faqat ishq yaratadi" hikmatiga bo'ysunib yashagan, ijod qilgan shoir butun borlig'i, alam va iztirobi, qaysar shiddati va ruhiy sukuti, quvonch-u qayg'usi, yonish va so'nishlari, faryod-u na'ralari bilan she'rlarida qoldi. Uning she'rlarini o'qiganda tasavvurimizda Vatanini topgan, millati kechmishini anglashga intilgan, bobomeros aqidalariga bo'lgan ishonchi butun vujudida qon bo'lib oqqan inson siymosi gavdalanadi. U biron bir satrida yolg'on gapirmadi, yolg'onni she'rning bo'ynidagi sirtmoq deb bildi. «She'riga o'xshamagan shoir — shoir emas, — deb yozgan Asqar Mahkam nazarida: "So'z

²⁴N. Komilov. Xizir chashmasi. "Ma'naviyat", T.: 2005. 36- b.

yolg'on bo'lmaydi. Uning sohibi yolg'onchi bo'lishi mumkin...Adabiyotda yangi so'z bo'lmaydi, rost so'zi bo'lishi mumkin²⁵.”

Asl shoir zoti hech qachon she'rdan boyigan emas. Uning topgan boyligi iztirob bo'ladi,xolos. Uning sig'inadigan mozorlari,boradigan bozorlari boshqa bo'ladi. So'fiy zotlar haqida aytilgan bo'lsa-da, Xoja Bahouddin Naqshband bitgan misralar qisman shoirlarga ham tegishlidir:

Bunda za'far yuz birla janda to'nlar sotilur,

Zardo'zi bozorlari ,rastalari boshqadir ... ²⁶

Asqar Mahkam mashhur bo'lishini tasavvur qilish qiyin shoirlar toifasiga kiradi. Bunday “qiyin” shoirlarni qo'shiqlar orqali emas, kitoblar orqali tanishadi. Shoirning she'rlari til,shakl,ifoda va ramzlar nuqtai nazaridan murakkabdir. Bu she'rlar o'quvchidan katta ma'rifiy bilim va ijodiy mushohadani talab qiladi. Asqar Mahkam she'rlarida aks etgan alamli ohang va qora rang shoirning fojiali, og'ir kechgan bolaligining ta'sirida namoyon bo'ladi. Mashhur faylasuf Folkner aytganidek, ”bolaliging qanday kechgan bo'lsa, umringning oxirigacha o'shanday bo'lasan”. Darhaqiqat, Asqar Mahkam bolaligi bilan bog'liq bo'lmasa-da, bolalik chog'idayoq yuragida o'rnashgan inson zotiga bo'lgan ishonchsizlik uning barcha bitiklariga hamohang bo'ldi. Uning Yaratganga ishonchi qat'iylashgan sari, insonga bo'lgan ishonchi o'sha xotiralar iskanjasida qolib ketaverdi.Bu shoirning aybi emas, bu uning qismati edi. Shoir haqidagi o'ylarini , o'z xotiralarini eslagan Asqar Mahkamning zamondoshi, hamkasbi, yaqin do'sti,shogirdi Ikrom Otamurod quyidagilarni xotirlaydi: “Aniq bilaman va mutlaq ishonaman: g'ofillar ko'ra olmaydigan, komillar muhoraba sadolarinigina eshitib, bezovtalangan, o'sha zulmat va yorug'lik uchun beomon jang kechayotgan jabhada bir paytlar

²⁵ Jabbor Omonturdiyev. So'zning tasavvufiy talqini. Tafakkur jurnali ,2004,4-son . 93- bet.

²⁶ Jabbor Omonturdiyev. So'zning tasavvufiy talqini. Tafakkur jurnali , 2003. 58- bet;

Kofarnihon bo'ylaridan o'zini izlab yo'lga chiqqan yigit ham bor. Yigitning ortida ruhan yengilmas, e'tiqodi qat'iy she'riy junaydullosi turibdi²⁷.”

Alloma Fariduddin Attor shunday degan ekanlar: “Odamzotning ruhi ichkarisidadir, sen unga safar qilmog'ing kerak”. Shoir Asqar Mahkamning ijodi ana shu taxlit edi, ya'ni “ichkariga safar” yo'siniga yo'g'rilgan qalb mahsuli. Insonning mohiyatini anglatishga qaratilgan yozuvlar sirasiga mansub.

Asqar Mahkam avvaliga “San'at” jurnalida, so'ngra “Guliston” jurnalida, keyinchalik esa “Faylasuflar milliy jamiyati”da xizmat qildi. Asqar Mahkam doimo fikr bag'rida bo'lgan edi. U doimo ijod bag'rida bo'ldi. Goh she'riyatga oshufta bo'ldi gohida esa tarjima bilan shug'ullandi. Umuman olganda shoir qisqa hayoti davomida ulkan yutuqlarga erisha oldi. Shoirning dilida ham shunday, ya'ni o'zi o'sgan joylarni sog'inish, unga intilish hissi kuchli edi. Bu uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shoirning zamondoshi va o'sha davrda ijod qilgan shoirlardan biri Ikrom Otamurod shoir bilan bog'liq xotiralarni bir - bir eslaydi:

” 2001 - yilda bizning elimizga boriladigan bo'ldi. Safardoshlar - Halima Xudoyberdieva, Omon Muxtor, Asad Dilmurod, O'rol O'taev, Salim Ashur, Sirojiddin Rauf, Asqar Mahkam va men birgalikda yo'lga chiqdik. Hammamizda ham hayrat qaysidir darajada ulg'aydi, taassurot, tasavvurlar to'lishdi. Asqarda esa bu jihat juda boshqacha kechdi. Uning ko'zlari yashnab ketdi. Uchrashuvlar, suhbatlardan keyin o'zi bir yerlarga chiqar, kengliklarga bolalarcha termular, nimalarnidir fikridan o'tkazar, goh ma'noli o'ziga xos jilmayish bilan, goh chuqur o'ylov bilan yana davralarga qo'shilardi²⁸.” deya shoirni qalbini tushunish juda murakkab hodisa ekanligini tasvirlab o'tadi.

Quyidagi misralar ham shoirning hayot yo'llarining mukammalligi bilan ham shoir hayotining uning she'rlarining va uning taqdiri bilan ham ipsiz bog'langan:

Kuzak edi - darbadar, daydi,

²⁷ Ikrom Otamurod .Men endi ketarman pinhon va yolg'iz. www.ziyo.uz.

²⁸ Ikrom Otamurod .Men ketarman endi pinhon va yolg'iz. www.fikr.uz.

qirg'oqda bir baliq yotardi.
Dedim:»Qultum suv bo'lolmaydi
ko'zlarimning taxir yoshlari...»
Kuzak edi ... Va yonlaridan
o'tib ketdim she'rim qabriga.
Ular nafrat bilan boqdilar
bir devona qotillariga...

Hayot insonning qancha yashagani bilan emas , balki qanday yashaganligi bilan belgilanadi. Asqar Mahkam ham qisqa hayoti davomida ulkan ishlarni qilishga ulgurdi. Shoirning asarlari asrlar davomida kitobxonlar nazaridan tushmasligi shubhasiz . Asqar Mahkam asarlarida so'zlar takrori kuzatilmaydi, bu shoir iste'dodining o'ziga xos namoyishidir.

1.2 Shoir she'rlarining badiiy xususiyatlari.

Asqar Mahkam asarlarining mohiyatini bilish uchun avvalo tasavvuf ilmidan xabardor bo'lish, so'zning tasavvufiy talqinini bilish muhim bo'lib sanaladi. Islom ta'limotida ikki olam ikki harfdan ya'ni "kof" va "nun" harflaridan yaratilganligi ma'lum. Jaloliddin Rumiy "Qur'on"ga asoslanib quyidagilarni aytib o'tganlar: "Har bir narsaning asli- so'z . So'z amaldan tug'iladi. Ulug' Tangri olamni so'z bilan yaratdi va "kun" ya'ni "bo'l" deyishi bilan u bo'la qoldi deydi", o'zining "Ichindagi ichindadur " asarida.

So'z – boqiy, azaliy va abadiy. Uni qanchalik tushunsak , shunchalik sayqallanadi. Navoiy bu jarayonni olam ahli quyosh zarrasining abadiy yig'gan yoki undan foydalangani bilan tugamagani dengiz suviga igna uchuni tiqib yoki namlab olgani bilan u kamaymaganiga o'xshatadi:

Olam eli zarra yig'sa jovid,
Nurini kam aylamagaymu xurshid .
Igna uchi bila zabt etib nam ,

Kim bahr suvini aylagay kam.²⁹

Shoirning she'rlari shunchaki irfoniy emas. Agar teran nigoh tashlasak, bu she'rlar zahirida hikmat va ibrat dunyosini ko'ra olishimiz mumkin. Zero, Asqar Mahkam tasavvuf ruhiyatiga murojaat qilganida uning qoidalarini va odoblariga ijodda ham amal qila olgan insonlardandir. U hatto “Xoja Hofiz g'azali bilan tili chiqqan bitta shoirman” deganida ham, o'z ijodi zahirida Hofizdek ustozlar turishini tevoze'lik bilan tan oladi.

Bu olam “Bo'l”, ya'ni “Kun fayakun” so'zidan yaralganini ko'pgina ulug' allomalarimiz ta'kidlashgan. Jumladan, shoir Asqar Mahkam so'z borasida eng zaruriy jumlaning keltiradi: “So'z va ruh bilan yolg'iz qolgan shoir iymonli bo'lsa, bu jarayon ibodatdir. Agar bordi-yu so'z bilan yolg'iz qolgan shoir jismida nafsoniyat ustun bo'lsa, bu aysh va shaqovat. Undan ham battar - fitna va buzg'unchilik bo'lishi mumkin. Iymonli so'z va ruhning bir vujudida kechadigan umri xayrli toat bo'lib, o'z sohibini ezguliklar sari eltadi, o'zgalarga ham yaxshilik keltiradi...³⁰.”

Darhaqiqat, lissonda mavjud so'zlar, uning hech bir harfini zoe qilmaganimizda, bizning toat-ibodatimizga aylanishi mumkin. Sharq dunyosida kishilarni ezgulikka chorlash pand-nasihati, suhbatlar orqali amalga oshgan. Suhbatlar esa, jumladan va uning tarkibiy qismi - so'zlardan tashkil topgan. Hazrat F. Attor, A. Jomiy, J. Rumiy hamda A. Navoiy kabi sharq mutafakkirlari ijodida “so'z”ga e'tibor qaratiladi va “kalima” insonni Ollohga yaqin qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.³¹

So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,

Ruh dog'i tan aro so'zdin halok

So'z ila so'ngan ruhni ko'tarish yoki aksincha, ko'tarinki ruhiyatni bir zumda so'ndirish mumkin. “Hayrat ul-abror”da “so'z”ga ehtirom ko'rsatar ekan, hazrat Navoiy uni jonbaxsh ne'mat sifatida qadrlaydi va jonsizga jon bag'ishlay olish

²⁹ Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик 7-том. “Фан”, Т.:1991 . -45 б.

³⁰ А.Маҳкам. Аналҳақ. “Абдулла Қодирий”, Т.: 2003.- 44 б.

³¹Jabbor Omonturdiyev. So'zning tasavvufiy talqini. Tafakkur .2000.4-son ,22-bet.

xislatini aytadi. Kunlik hayotimizda so'zlardan foydalanib o'z ishlarimizni bitiramiz, ehtiyojlarimizni qondiramiz, hattoki ruhimiz uchun quvvat olib turamiz. Ammo ko'p holda bu so'zlarni biz nimalarga va qanday maqsadlar yo'lida sarflayotganimizga ahamiyat bermaymiz. Zero, dunyoni inson o'zgartiradi, insonni esa uning yuragi. "So'z" esa, yurakni boshqaradi. "So'z" boshqarish va ta'sir etish layoqatiga ega ekan, undan unumli foydalansakkina ko'zlangan maqsadga erishamiz va ruhimizni poklab, harakatlarimiz, fe'l-atvorimizni isloh qila olamiz. Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda: "Odam erkin ekanman deb og'ziga kelgan narsani valdirashi, ko'ngliga kelgan noma'qulchilikni qilishi mumkin emas... Ijod erkinligi xalqqa, vatanga fidokorlik bilan xizmat qilish erkinligidir... Bugungi dunyoda yovuzlikka qarshi turadigan, muqarrar tarzda undan g'olib keladigan qudrat bor - bu muhabbatdir, bu mehrdir".³²

Asqar Mahkam ijodidagi so'zlarning o'zgacha ta'sir kuchi, joni bor deyish mumkin. "Tabriz daftari" yoki "Analhaq" kitobini o'qigan she'rxon buni darrov fahmlaydi. Unda til so'zlari emas, balki dil so'zlari bitilgandir. So'zning hozirgi ahvolini xasta Ayyub payg'ambar (a.s.)ga o'xshatgan shoir, shaxsiy manfaatlar tobora kuchayib, inson kimligini unutib qo'yayotganini, "so'z" esa o'z ta'sirini yo'qotgan; endilikda faqat kishilarning manfaat va ehtiyojlari yo'lida xizmat qilayotgan oddiy muomala vositasiga aylanib borayotganidan so'zlaydi.

Va: Menga gullar shivirlar giryon:

"Bugun she'ring kimga ham kerak!..³³" - deya afsuslanadi.

Chunki, nazm va nasr ba'zi erkin "ijodkorlar" tomonidan eplasa bo'ladigan san'at turiga, oddiy qiziqish yoki xususiy tijorat yo'lga aylanib borayotganidan, ular ta'sirida esa adabiyot olamida so'zning qadsizlanishi kishilar uchun ijobiy natijalar bera olmayapti. Balki, shu sababdan kamdan kam kishilar kitoblarga, zamonaviy nazm va nasrga e'tibor berishadi. Adabiyot uchun oddiy hisoblangan narsani qo'llab-quvvatlashimiz, unga rahm aylab ko'klarga ko'tarishimiz oqibatida badiiy

³² Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент. «Маънавият» 2006.88-б.

³³ А.Маҳкам. Аналҳақ. "Абдулла Қодирий", Т.: 2003. 46-б.

ijod ommaviy erkin mulkka, ko'pchilik qilishi mumkin bo'lgan oson vazifaga aylanib bormoqda. Vaholanki, san'atda ham, kuylash, rasm chizish, musiqa bastalash kabi jarayonlar ilohiy ilhom bilan amalga oshadi. "Agar tanqidchilikda bitta ijodkorga rahm qilsa, bu bilan ko'plab adabiyot muxlislariga jabr qilingan bo'ladi... Adabiyot ijodkorlari odamni maqtab ko'kka ko'tarish san'atini yaxshi egallaganlar-u, odamning insoniy jozibasini yuraklarini jazillatadigan darajada ko'rsatishga ba'zan qodir bo'lmaydilar... Quruq maqto'v, balandparvoz hamd-sanolar bilan katta asarlar haqida durustroq narsa yozib bo'lmaydi... Yozuvchilik san'atining yarmidan ko'pi nimani yozish kerakligini bilishdan emas, nimani yozish kerak emasligini bilishdan iborat bo'ladi."³⁴ Jon kuydirib aytgan ustoz

O. Sharafiddinovning badiiy ijod xususidagi formulalarini Asqar Mahkam o'z she'rlarida tasdiqladi va odam bo'lish sirini quyidagi misralarida bayon etdi:

Osmon o'sha...

Qadimiy osmon...

Yulduzlar ham yonar to'kilmay...

Odam bo'lmas hech kim hech qachon

Buyuk Qur'on so'zin o'qimay!..

Garchi kajdir charx -

Bordir omon

U aylanar azal shu yo'sin...

Odam bo'lmas hech kim hech qachon

Navoiyning o'qimay so'zin!..

Er aylanib turar har qalay

Ko'targancha inson zotini

Odam bo'lmas hech kim o'qimay

Mavlononing Kuliyotini!..

... So'z o'lmaydi!

³⁴ Abdulla A`zam .Ozod domla formulalari.Tafakkur jurnali, 2003,30-son.23-b.

O'ldirib bo'lmas!..

So'z joni ham Olloh qo'lida!..

She'rdagi qoliplar, jimjimador so'zlar, garchand nazariyaga muvofiqlik bo'lsin, unda ilohiy ma'rifat ruhi yashamas ekan, u o'z-o'zidan ijod mahsuliga kirib qolmaydi. Ijodning asosiy belgisi unda yashaydigan ilhom bilan namoyon bo'ladi. Ilhomsiz ijod esa, quruq harakatdan boshqa narsa emasdir. Ijodkorlikka da'vogar shaxs, avvalo ijodni anglash baxtiga sazovor bo'lmog'i kerak.³⁵

Bu o'ta murakkab ishdir. Kitobxon saviyasi yozuvchi nigohini ko'ra olishi uchun teran dunyoqarashga, yuksak ma'rifat va qalb pokligiga sohib bo'lishi talab etiladi. Ammo, ijodkorning imkoniyati cheksiz degani emas, o'z navbatida adabiyot ulkan va cheksiz ummondek ko'rinadi; aslida uning ham mezon nuqtalari mavjud. Chunki adabiyotdan asl muddao "adab" ya'ni odob masalasidir. Ijodkor bu mezon nuqtalarida harakatlanmas ekan, maqsadsiz qalam surar ekan, uning mahsuli avlodlarga meros bo'lib qoladigan asarlar qatoridan o'rin ololmaydi. Ko'ngil va ruh ma'noga bir-biriga oshuftadir. Jismning asosi esa jon va ruhda. Inson qachon bo'lmasin, shaklbozlikdan bezib, yana ma'noga qaytadi. O'shanda chang bosib o'qilmayotgan devonlar, kulliyotlar, ruboiylar, hikmatlar qo'lga olinadi. Qalam ahli Navoiy va Jomiy bo'lishga intiladi. Nazm gulistonining cheksiz ma'rifat taratuvchilari yuzaga keladi.

Jaloliddin Rumiyni o'ziga ma'naviy ustoz va rahnamo deb hisoblagan Asqar Mahkam shoirning she'riyati odatiy she'r uslubi emas. Uni anglash uchun katta ruhiy va ma'rifiy tayyorgarlik kerak. Chunki, u irfon ruhida qalam tebratgan, fors va turk tasavvuf allomalar izidan borib, ulardan o'ziga quvvat ola bilgan ijodkordir. Bu haqda shoirning o'z e'tirofi bor:

Men - yarmi fors

yarmi - turkiyman...

Bo'lgani shu. Boshqasin bilmam...

Xoja Hofiz g'azali bilan

³⁵ Шарафиддинов О. Ижодни anglash baxti. Тошкент. "Маънавият", 2006. 78-б.

tili chiqqan bitta shoirman.

Mening yirtiq yaqolarimni

G'azal bilan tikkan azizlar

Allaladi bobolarimni

Hirof Sherof Balxu Tabrizlar...³⁶

Bu bejirim, ko'ngilni farah etuvchi misralarga faqat shunday sharhlar kerak bo'ladi. Shoir azizlarga bo'lgan mehrini, shu jumladan o'zini ham kamtarona ruhda tasvirlamoqda. Taqdir taqozosiga ko'ra, bu ijodkor yuragining yarmi fors, yarmi turkiy edi. Ammo uning chok-chok sitilgan yoqalarini azizlar g'azal bilan butladi. Adabiyotga havas, ustozlar ijodiga mehr, libosining ziynatiga aylandi. Navoiy, Hofiz, Rumi, Shams Tabriziy kabi yetuk allomalar bir-birlariga hamohang bo'lganlaridek, Hirof, Sherof, Balxu Tabriz ham aziz avliyolar va ustozlar qadamidan sharaflandi va hozirga qadar bu maskanlar biz uchun muborakdir.

Garchi ma'yus bu Musalloda

peshonamning izlari yo'qdir

lekin buzrukvor Buxoroda

Musalloning sha'ni ulug'dir

Naqshbandning chorig'i bilan

kezdin Tabriz ko'chalarini

Avliyolar qo'pdilar birdan

boshda tutib qubbalarini...

Farishtalar uchardi yengil

nurga chulg'ab go'yo bag'ringni

Avliyolar dedilar: "Bergil
ey musofir choriqlaringni..."³⁷

³⁶ Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: "Ўқитувчи", 1973. –24- б.

³⁷ Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: "Ўқитувчи", 1973. 45- б.

“Musallo” so'zi lug'atda “namozgoh, umumiy namoz o'qiladigan joy” ma'nosini anglatadi. Masalan, Hirot va Sherozdagi musallolar, ya'ni masjidlar. “Garchi bu yurtlardagi ma'yus musallolarda peshonam izlari tegmagan bo'lsa-da, Buxoroi sharifning maqomi ulug'dir, hazrat Bahouddin choriqlarini kiyib, ya'ni ul muborak zotning nafaslarini olib borar ekanman, o'zga yurtning avliyolari “choriqlaringni ber”, deya meni o'rab oldilar” - demoqda shoir.

Shoirning she'rlari shunchaki irfoniy emas. Agar teran nigoh tashlasak, bu she'rlar zamirida hikmat va ibrat dunyosini ko'ra olishimiz mumkin. Zero, Asqar Mahkam tasavvuf ruhiyatiga murojaat qilganida uning qoidalari va odoblariga ijodda ham amal qila olgan insonlardandir. U hatto “Xoja Hofiz g'azali bilan tili chiqqan bitta shoirman” deganida ham, o'z ijodi zamirida Hofizdek ustozlar turishini tevoze'lik bilan tan oladi. Navoiy ta'biri bilan aytganda, o'z ijodi va hayotidan masrurlik, unga mahliyo bo'lishlik shoirga mutlaqo begonadir. Uning she'rlarida kamtarona falsafiy ruh seziladi:

Umr kechdi xobu xulyoda
o'tdi qancha azizlar yig'lab...
Hamma shoshib turgan dunyoda
o'tiribman yalpizni hidlab...
So'ng yalpiz ham bir-bir to'kildi
o'z hukmini aytdi tiriklik...
Birov valiy birov shayx bo'ldi
menga qoldi tomoshabinlik...³⁸

Ushbu satrlarda dunyoni chetdan kuzatayotgan inson tasvirlangan. Go'yo umr uyqu va xayol ichra o'tib ketmoqda, odamlar nimalargadir shoshib, yelib-yugurmoqda. Kimdir bu orada shayx bo'lib, kimdir valiy bo'lib ulgurdi, ammo bir insongina

³⁸ Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 56- б.

ularni tomosha qildi. O'zgarlar ortidan ergashmadi, chunki uning hayotdan o'z maqsadi va vazifasi bor.

Asqar Mahkam shoirning nafaqat ushbu she'ri, balki umuman ijodida hayotga chetdan nigoh tashlagan insonning tasviri bor. Qaysi bir misraga oshno bo'lmaylik, tashqi muhitni yuqoriroqdan kuzatib turgan siymo gavdalanadi unda. Bu bejizga emas, sababi shoirning o'zi hayotda haqiqatparast edi. Balki shu sabab uning ijodida haqiqat sadolari baralla yangragandir.

Dedim: "Isming nadir ey mohi tobon?"

Dedi: "Ismim yolg'iz Xudoga ayon!.."

Dedim: "Nahot shuncha sirlidir isming?.."

Dedi: "So'rma meni gunohkor qilding!.."

Dedim: "Osiylarga to'ladir dunyo!.."

Dedi: "Men bilmasman... Bilar Kibriyo!.."

Dedim: "Men shoirman... Hofiz naslidan..."

Dedi: "Men Tabrizning muslimasiman!..³⁹,"

Asqar Mahkamning yuqoridagi "Tabriz muslimasi" g'azalida badiiy jihatdan go`zalligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, g'azallarida tovushlarning jaranggiga alohida ahamiyat qaratgan. Takroriy qo'llangan so'zlar unda ma'nolarning bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Takroriy qo'llangan so'zlar shunchaki sahifani to'ldirishga emas, balki o'quvchining ichki tuyg'ularini, she'rga munosabatini jo'shtirishga qaratilgan. O'z navbatida, she'riy san'atlardan unumli va me'yorida foydalana olgan. Ayniqsa, Asqar shoirning savol-javob she'riy san'atini qo'llashi o'zgacha, u o'ziga xos yashirin falsafani, oxirat va dunyo, insoniyat, jamiyat, tashqi muhit va aldov, nohaqlik, mehr-muhabbat, asl haqiqat tushunchalarini bera oladi. "Tabriz muslimasi" aslida taqvo xususida so'zlaydi. Tabrizning oddiy bir muslimasi, shunchaki so'zlamayapti, balki u andisha va Ollohdan qo'rquvchi bandasining ojizona taqvosini ifodalamoqda. Undan savol

³⁹ Tabriz daftari "Al-Hudo" xalqaro nashriyoti, "Minhoj", T.: 2004. 42-b.

so'ragan kimsa esa, hali bu taqvodan yiroqdir. Shu sabab, uning savollari ham oddiy. Demak, bu misralar shunchaki oshiq va ma'shuq o'rtasidagi suhbat ham emas, "Analhaq"qa yaqin bo'lgan Mansur Hallojlarning yo'li va ularning nigohlari bilan hayotga razm solishdir.

Asqar Mahkam ijodi ulkan ummon va betakror jozibadan iborat. Uni qanchalik tadqiq qilmaylik bu xazina chashmasi sira tugamaydi. Hatto bir baytning ustida soatlab bahs olib borish, fikr yuritish mumkin. Sababi, unda irfon dunyosi yashaydi. Shoir she'rlariga ilhom bergan narsa Qur'on oyatlari, hadis ilmi deb hisoblanadi va bu kitoblarga bo'lgan ulkan muhabbat uning ijodida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

She'rlardagi keskir qarashlar, shirin va ba'zan achchiq so'zlar shoir ijodida haqqoniy tildan olingan. Ya'ni, u yasama so'z termaydi, hijron deganida, boshqalar ham qo'shilib yonadi. Ishq deganida, o'zgalar ham oshiq bo'ladi, shoir nadomat chekkanida, o'quvchi ham qo'shilib, o'sha ruhiy holga beixtiyor tusha oladi.

Shundan bilish mumkinki, Asqar Mahkam Haq yo'lida haqiqatni kuylab o'tgan yirik shoirlardan biri bo'lgan. Uning ijodidan bahra olgan qalb esa, hamisha osudalikda, shoir dunyosida u bilan birga yashaydi.

Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda: "Odam erkin ekanman deb og'ziga kelgan narsani valdirashi, ko'ngliga kelgan noma'qulchilikni qilishi mumkin emas... Ijod erkinligi xalqqa, vatanga fidokorlik bilan xizmat qilish erkinligidir... Bugungi dunyoda yovuzlikka qarshi turadigan, muqarrar tarzda undan g'olib keladigan qudrat bor – bu muhabbatdir, bu mehrdir⁴⁰." Shoir bugungi kundagi she'rga, adabiyotga bo'lgan e'tiborni kundan - kunga pasayib borayotganligidan so'zga bo'lgan munosabat, uning qadri masalasida ko'nglida bir og'rinish sezadi:

Bugun so'zlar Ayyubdek xasta

⁴⁰ Abdulla A'zam .Ozod domla formulalari.Tafakkur jurnali, 2004,3-son.34-b.

yo barchadan u ham to'ydimi...

Menga barglar shivirlar asta:

“Endi birov she'r o'qiydimi!...”

Nahot So'zdan qolmadi nishon

garchi ular bozorda lak-lak...

Jaloliddin Rumiyni o'ziga ma'naviy ustoz va rahnamo deb hisoblagan Asqar Mahkam shoirning she'riyati odatiy she'r uslubi emas. Uni anglash uchun katta ruhiy va ma'rifiy tayyorgarlik kerak. Chunki, u irfon ruhida qalam tebratgan, fors va turk tasavvuf allomalar izidan borib, ulardan o'ziga quvvat ola bilgan ijodkordir. Bu haqda shoirning o'z e'tirofi bor:

Men – yarmi fors

yarmi – turkiyman...

Bo'lgani shu. Boshqasin bilmam...

Xoja Hofiz g'azali bilan

tili chiqqan bitta shoirman.

Mening yirtiq yaqolarimni

G'azal bilan tikkan azizlar

Allaladi bobolarimni

Hirof Sherof Balxu Tabrizlar... ⁴¹

Shoir azizlarga bo'lgan mehrini, shu jumladan o'zini ham kamtarona ruhda tasvirlamoqda. Taqdir taqozosiga ko'ra, bu ijodkor yuragining yarmi fors, yarmi turkiy edi. Ammo uning chok-chok sitilgan yoqalarini azizlar g'azal bilan butladi. Adabiyotga havas, ustozlar ijodiga mehr, libosining ziynatiga aylandi. Shoirning she'rlari shunchaki irfoniy emas. Agar teran nigoh tashlasak, bu she'rlar zamirida hikmat va ibrat dunyosini ko'ra olishimiz mumkin. Zero, Asqar Mahkam tasavvuf

⁴¹ Tabriz daftari "Al-Hudo" xalqaro nashriyoti, "Minhoj", T.: 2004. 32-b

ruhiyatiga murojaat qilganida uning qoidolari va odoblariga ijodda ham amal qila olgan insonlardandir. U hatto “Xoja Hofiz g'azali bilan tili chiqqan bitta shoirman” deganida ham, o'z ijodi zamirida Hofizdek ustozlar turishini tevoze'lik bilan tan oladi. Navoiy ta`biri bilan aytganda, o'z ijodi va hayotidan masrurlik, unga mahliyo bo'lishlik shoirga mutlaqo begonadir. Uning she`rlarida kamtarona falsafiy ruh seziladi:

Umr kechdi xobu xulyoda
o'tdi qancha azizlar yig'lab...
Hamma shoshib turgan dunyoda
o'tiribman yalpizni hidlab...
So'ng yalpiz ham bir-bir to'kildi
o'z hukmini aytdi tiriklik...
Birov valiy birov shayx bo'ldi
menga qoldi tomoshabinlik...⁴²

Ushbu satrlarda dunyoni chetdan kuzatayotgan inson tasvirlangan. Go'yo umr uyqu va xayol ichra o'tib ketmoqda, odamlar nimalargadir shoshib, yelib-yugurmoqda. Kimdir bu orada shayx bo'lib, kimdir valiy bo'lib ulgurdi, ammo bir insongina ularni tomosha qildi. O'zgalar ortidan ergashmadi, chunki uning hayotdan o'z maqsadi va vazifasi bor. Asqar Mahkamning nafaqat ushbu she`ri, balki umuman ijodida hayotga chetdan nigoh tashlagan insonning tasviri bor. Qaysi bir misra bilan tanishmaylik, tashqi muhitni yuqoriroqdan kuzatib turgan siymo gavdalanadi unda. Bu bejizga emas. Sababi shoirning o'zi hayotda haqiqatparast edi. Balki shu sabab uning ijodida haqiqat sadolari baralla yangragandir.

Shoir ijodi rang-barang va jozibador; unda hayot falsafasi yotadi. “Tabriz daftari”dagi she'rlar kishiga ilohiy zavq, ruhiy quvvat bag'ishlaydi. Undagi pok

⁴² Tabriz daftari "Al-Hudo" xalqaro nashriyoti, "Minhoj" , T.: 2004. 43-b

xayollar, shoir ichki kechinmalari va o'ziga xos teran nigohi, inson va tabiatga bergan bahosi, pinhoni mas'uliyat ko'zga yaqqol tashlanadi.

Musofirman...

g'aribman...

bilman...

Tabriz menga afsonalar ayt!

Yurib-yurib bunda kelibman

Tabriz menga afsonalar ayt!..⁴³

Asqar shoir she'rlari bir-biriga hamohang so'zlardan tarkib topgan. Shu sabab ular o'qilganda ravon, musiqiylikni ifodalaydi. Ayniqsa, g'azallarida tovushlarning jaranggiga alohida ahamiyat qaratgan. Takroriy qo'llangan so'zlar unda ma'nolarning bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Takroriy qo'llangan so'zlar shunchaki sahifani to'ldirishga emas, balki o'quvchining ichki tuyg'ularini, she'rga munosabatini jo'shtirishga qaratilgan. O'z navbatida, she'riy san'atlardan unumli va me'yorida foydalana olgan. Ayniqsa, Asqar shoirning savol-javob she'riy san'atini qo'llashi o'zgacha; u o'ziga xos yashirin falsafani, oxirat va dunyo, insoniyat, jamiyat, tashqi muhit va aldov, nohaqlik, mehr-muhabbat, asl haqiqat tushunchalarini bera oladi. "Tabriz muslimasi" aslida taqvo xususida so'zlaydi. Tabrizning oddiy bir muslimasi, shunchaki so'zlamayapti, balki u andisha va Ollohdan qo'rquvchi bandasining ojizona taqvosi ifodalamoqda. Undan savol so'ragan kimsa esa, hali bu taqvodan yiroqdir. Shu sabab, uning savollari ham oddiy. Demak, bu misralar shunchaki oshiq va ma'shuq o'rtasidagi suhbat ham emas, "Analhaq"qa yaqin bo'lgan Mansur Hallojlarning yo'li va ularning nigohlari bilan hayotga razm solishdir.

Dedim: "Isming nadir ey mohi tobon?"

Dedi: "Ismim yolg'iz Xudoga ayon!.."

⁴³ Tabriz daftari "Al-Hudo" xalqaro nashriyoti, "Minhoj", T.: 2004. 65-b

Dedim: “Nahot shuncha sirlidir isming?..”

Dedi: “So'rma meni gunohkor qilding!..”

Dedim: “Osiylarga to'ladir dunyo!..”

Dedi: “Men bilmasman... Bilar Kibriyo!..”

Dedim: “Men shoirman... Hofiz naslidan...”

Dedi: “Men Tabrizning muslimasiman!..”

Asqar Mahkam “Tabriz daftaridan” nomli sheʼrlar toʻplamidan oʻrin olgan “Buyuk imom hujrasida ” nomli sheʼrida soxta imomlarning shayxlikni daʼvo qilib chiqishini, din-diyonatning maqomi mol dunyo bilan oʻlchanishidan kuyunib yozadi. Hazrat Imom (r.a.) butun hayotini iymon va insonning ozodligi gʻoyasiga tikdi va bu ilohiy vazifani ado etdi. Ana shu mushkul jarayonda uning beorom ruxi sheʼrni sogʻindi. Bu sheʼr sogʻinchi – Iloh sogʻinchi, bir orif va oshiqning Haqqa cheksiz muhabbati ifodasi edi. Haq – uning Do'sti. U butun umri davomida Do'st jamoliga talpindi, yukindi, yondi, qidirdi va o'zgalarni ham qidirishga va yana tinimsiz qidirishga da'vat etdi.

Asqar Mahkamning “Tazarru” toʻplamidan oʻrin olgan “Kuz ...odam” sheʼrida kuz faslini goʻyo inson umriga oʻxshatadi. Kuz faslini oltin fasl sifatida tasvirlash koʻpchilik ijodkorlarga xos boʻlib, Asqar Mahkamning sheʼrida esa u bu faslni inson umrining yakuni sifatida beradi. Lekin shoir hayotdan umidini uzmagani holda “biz qaytamiz, bir kun qaytamiz” deya, hayotdan umidini uzmaydi. Ushbu sheʼrda shoir inson umrining gʻanimatligini, uning har bir daqiqasini qadriga yetib yashash kerakligini badiiy tashbehlar orqali tasvirlaydi. Sheʼrdagi har bir misrani tahlil qilsak yangidan – yangi maʼno kelib chiqadi. Quyidagi satrlar inson qalbini junbushga keltiradi: “qaytayapman oʻzimni koʻmib”, “koʻzlarimda qonim qonaydi”, “tumanlarning ogʻir oyogʻi”, “daryolarning kalla chanogʻi”, “yomgʻir kuzning moviy zavoli ”, “oʻylar uysiz daydi kuchuklar”, “ bogʻlar aro soʻngan koʻzdir –kuz”. Shoir daraxtlarning barglari xazon boʻlib toʻkilishiga kuz faslini aybdor deb hisoblaydi, hatto bu azoblarga bardosh berolmagan shoir jon taslim etganida qora qayragʻoch ham qora kiydi

deydi. Daraxtlar shunchalar mo`rt bo`lganidan agar ularni quchoqlasang quvurg`alari qarsillab sinadi deydi. She`rda tashbeh san`atini kuzatishimiz mumkin: yomg`irni kuzning zavoliga, inson xayolidagi o`ylarini uysiz daydi kuchuklarga, sad daraxtini sarhadsiz chayqalgan kuzakka, kuz faslini esa so`ngan ko`zga o`xshatish orqali shoir tashbehlarning badiiy tahlil talab turlarini yaratgan.

Xayr endi, mening xazonim,
tanho go`rga sig`dik ikkimiz,
yig`layotir , kuylayotir jim
joni kuzda chiqqan jismimiz.⁴⁴

Adabiyotimizda maktub shaklida yozilgan asarlar ham ko`p uchraydi. Ayniqsa ushbu yo`nalishdagi she`rlar mashhur rus shoiri Sergey Yesenin she`rlarida uchraydi. Shoirning “Onamdan xat”, “Ayolga xat”, ”Bobomga xat”, ”Onamga xat” kabi she`rlari mashhur bo`lib shoir Asqar Mahkamning asarlarida ham ushbu yo`nalishdagi she`rlar kuzatish mumkin. Xususan , shoirning “Opam latofatga maktub” she`rida ham shoir o`zini oddiy farrosh bo`lib ishlaydigan opasi bilan taqqoslaydi, oddiy farrosh opasining mahkama kirlarini yuvishini, axlat qutilarni tozalashini achinish bilan yodga olib , farrosh opasining naqadar buyukligini aytib o`tadi. Shoir opasiga qarata mahkamaning axlatlarini supur, pollarini supur, lekin kursilarga qo`ngan ta`maning yuzlariga tupur , betlariga tupur deydi, darpardalarni och xonalardagi fasot, nafs, xudbinlik, manfurliklarni tashqariga chiqarib yubor deydi. Shoir o`zining samimiy tuyg`ularini rangin bo`yoqlarda tasvirlaydi, o`z qishlog`ini sog`inganini alam va iztirob bilan xotirlaydi:

Toshkentda men shoir bo`lmadim taqir
va shoir emasman, bundan ko`ngil tinch.
ko`ksimni maydalab tashladi Qadr,

⁴⁴ Асқар Махкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 58- б.

ko`zimga bir hovuch chang sepdi Sog`inch.⁴⁵

Asqar Mahkam ruh dunyosi , ibtido va intiho ma`nisi, botin , koinot kabi sirli Hazrati odam xususida so`z aytishga azm etgan shoir . Uning she`rlari sharq falsafiy tafakkuridan oziq olgan . Shuning uchun ham u o`ziga donishmandona munosabatni talab qiladi. Shoirning quyidagi she`ri ham ana shu ruhda yozilgan bo`lib , insoniy munosabatlar barcha narsadan ustun turishini ta`kidlaydi:

Quloqlarim shang`illamang ,bas,
buncha yerga kirmang ko`zlarim.
Dilingizni kemirmasin qasd,
men odamman mening do`stlarim.⁴⁶

Ushbu she`rda inson umrining g`animat ekanligi, ko`ngil esa daraxt yaprog`iday nozik bo`lib bir og`iz achchiq so`z ta`sirida o`zining bandidan chirt uzilishi mumkinligi, haqiqiy do`stlarning esa yomon kunda bilinishi go`zal tashbehlar orqali tasvirlangan. Bu dunyo yolg`on , aldamchi ekanligi va insonning insoniyligi oliy tuyg`u ekanligini shoir she`rida keltirgan bo`lib kimgadir qilmoqchi bo`lgan ezgu ishlaringni u insonning tiriklik vaqtida qilish kerakligini, u dunyodan o`tgandan keyin esa afsus nadomatlar foydasizligini ta`kidlagan.

Keyin o`zim ketarman shunday,
ko`hna to`nim turar yelkamda.
So`ng unuting nima ham qilay?
tashlab keting ...o`zim ketganda...

Zikr bu tasavvufiy hayot tarzining asosiy unsurlaridan biri bo'lgan zikr ko'plab oyatu hadislar orqali musulmonlarga buyurilgan va tavsiya qilingan. "Parvardigoringizning nomini mudom yod eting va unga butunlay berilib, chin

⁴⁵ Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 62- б.

⁴⁶ Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 68- б.

ixlos bilan bandalik qiling!", "Ey mo'minlar, Allohni ko'p zikr qilinglar!", "Bas, Meni eslasangiz, Men ham sizlarni eslayman va Menga shukr qilingiz va Meni inkor qilmangiz!"⁴⁷ " Zikr va uning xususiyatlari haqida yuqoridagi hadislar tasavvuf va tariqatlarning ayrilmas qismi bo'lgan zikrning manbaini tashkil etadi. Asqar Mahkamning "Zikr" nomli she'rida ham tasavvufiy timsollar juda ko'p uchraydi va kishidan alohida tayyorgarlikni talab qiladi uni tahlil qilish uchun avvalo tasavvuf ilmidan xabardor bo'lish juda muhim. Ushbu she'rda inson o'z nafsining quliga aylanib borayotganligini shoir achinish bilan tasvirlaydi, inson o'zini o'zidan badarg'a qilishi kerakligini ya'ni nafsining hakalak otishiga yo'l qo'ymasligi zarurligi ta'kidlanadi.

Jismimni farog'at itlari yedi,
aziyat izlari o'chdi yuzimdan .
Men yerga yotmoqni istayman endi,
badarg'a qilaman o'zni o'zimdan.

Asqar Mahkamning "Oshiqona " nomli she'rida haqiqiy oshiqlik ya'ni ilohiy ishq kuylanadi. Har bir misrada qofiyadosh so'zlardan o'rinli foydalangan. She'rdagi har bir so'zning ma'nosini bilmasdan turib she'rning asl ma'nosini tushunish mushkul. Shuning uchun she'rdagi ayrim so'zlarning izohini izohli lug'atdan keltirishni joiz deb hisobladik. Quyida ushbu she'rdagi tushunish murakkabroq bo'lgan so'zlar keltirilgan:

-“Hamoqat”ahmoqlik , tentaklik,aqlsizlik

-“Malomat”ta'na qilish , ayb taqash. Birovni haq –nohaq yomonlab aytilgan gap,mazammat , ta'na

-“Safolat”-juda yomon nochor ahvol, abgorlik.Yaramas hatti –harakat yoki xulq – atvor , razillik razolat.

⁴⁷ Ahmad Abdullayev . Tasavvuf va uning namoyondalari. Ilmiy – ommabop risola .Termiz, 2007. 106-b.

-“Razolat ” – pastkashlik, qabihlik, yaramas , jirkanch hatti – harakat,qabih ,razilish ,tubanlik, razillik.

-“Raqobat”- kuzatish , nazorat , basma –baslikka bellashuv , kim o`zdi ,talabgorlar raqiblar kurashi .

-“ Kifoyat ”- yetarlilik, zarur miqdorning borligi ,qanoatlansa bo`ladigan darajada, qanoatlanarli , yetarli.

-“Shafoat ”- tarafini olish, birov uchun vositachilik. Martabasi va hurmati yuqori kishi tomonidan o`zidan past kishilarni ,beva – bechoralarni qo`llab quvvatlash , ularga nisbatan homiylik, yaxshilik qilish.⁴⁸

Shoir she`r baytlarida bir –biriga bog`liq va bir – biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so`zlarni qo`llash orqali tanosub san`atidan mohirona foydalangan bo`lib, bu orqali u oshiqning his- tuyg`ularini tasvirlashda ma`no jihatidan unga yaqin so`zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi:

Malomat bor , haqoratlar bor,

alomat bor , asoratlar bor,

adovat bor , hamoqatlar bor,

men- ishqparast , illo ishqparast !

Shoir majoziy ishqni emas balki,ilohiy ishqni kuylaydi. U oshiqning qalbida malomat ham, haqorat ham, alomat- asorat ham, adovat, hamoqatlar bor bo`lib shularni hammasini birlashtirgan oshiq qalbi ishqparastlikdan hech qachon tonmasligi tasvirlangan. Haqiqiy oshiq muhabbatni ibodat kabi qabul qiladi deydi:

Kifoyat bor, inoyatlar bor,

⁴⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати .- Тошкент: Давлат илмий нашриёти. [www.ziyouz.com.kutubxona](http://www.ziyouz.com/kutubxona).

ijozat bor, ibodatlar bor ,
shifoat bor , shafolatlar bor,
men ishqparast ,illo ishqparast!...

Ilohiy mavzulardan biri bo`lmish muhabbat mavzusida qalam tebratmagan shoir bo`lmasa kerak . Shoir Asqar Mahkam ham bu mavzuda salmoqli ijod qilgan bo`lib, biroq shoir she`rlarining ko`pchiligi ilohiy ishq haqida so`zlaydi. Biroq quyidagi she`rida esa majoziy ishq haqida desak xato bo`lmaydi. Ushbu she`rda shoir muhabbatning eng oliy tuyg`ulardan biri ekanligini tasvirlaydi. Inson taqdirida turli holatlar bo`ladi goh toleyi kuladi gohida esa tuproq bilan qoplanadi, bazan sadaqaga ham zor bo`ladi, bazan esa tillalarga ko`milib yashaydi. Inson qanday holatda bo`lishidan qat`iy nazar MUHABBAT deb atalmish tuyg`u qalbga so`roqsiz kirib keladi. Olloh har bir insonning qalbida bo`lishini shoir “har bandaga bir xudo bo`lg`ay ”deya tasvirlaydi. Muhabbatning bu olamda yagona ekanligini har, insonni ado qiluvchi shirin tuyg`u ekanligini badiiy dalillash mahorati orqali go`zal misralarni yaratadi:

Azo bo`lgay yo jazo bo`lgay,
ado bo`lgay yo ato bo`lgay ,
har bandaga bir xudo bo`lgay,
bu olamda yolg`iz Muhabbat!...

Asqar Mahkam she`rlarida inson masalasi bosh masalalardan biri bo`lib shoirning “Umidsiz qiz ” she`rida ham umidlari armonga aylangan , aybsiz aybdor bo`lib hali kelinlik libosini kiymay or – nomushidan judo bo`lgan qiz obrazi berilgan. Shoir qizning ko`zlaridagi umidsizlikni tasvirlar ekan tashqarida yo`g`ayotgan qor ham qiz uchun qor emas balki, uning yuragiga yog`ayotgan tosh kabi og`ir botishini, kipriklaridagi ko`z yosh esa yurak – bag`irni teshib yuborishini, yog`ayotgan qor o`zi bilan birga musaffolik poklik olib kelmayapti, balki qizni nomusini , qadrini ko`mib yuboryapti deya tasvirlangan. Qizning soch

tolasi shunchalar mayinki biroq bu sochlar mayin bo`lsa ham har bir tolasi qizning nozik bo`ynini tirmalaydi. Qizning boshidan o`tgan musibat uning yuziga misrang dog`lar soldi, hatto yalpizlar hidi ham unga hech qanday hissiyot uyg`otolmaydi, u bundan benasib. Qizning yuzlaridagi ajinlar ham uning ayanchli taqdiridan so`zlaydi go`yo. Shoir tashqarida yog`ayotgan qorni qizning hayotiga moslab har bir misrada alohida narsalarga o`xshatadi. Masalan, “tashqarida yog`ayotir zahr”, “misrang dog`lar tushgan yuziga ”, “soya solar bo`r kabi osmon”, “tashqarida yog`ayotir yosh”, “tashqarida yog`ayotir mung”, “tashqarida yig`layotir abr”. She`rning oxirgi misralari kishini dahshatga soladi, bunday o`xshatishni boshqa ijodkorlarda uchratish qiyin. Shoir tashqarida yog`gan qorni o`z qadrini , nomusini yo`qotgan qizlarga ,ayollarga o`xshatadi :

Yaproq yanglig` ko`kargan labi,

Umidlar ko`r , xotiralar gung ,

Vayron mo`ri ado dud kabi

Tashqarida yog`ayotir mung.

tashqarida yog`ayotir abr ,

Chayqaladi kumushrang shollar .

go`yo zamin uzra beqadr,

Oq ko`ylakda yotar ayollar...⁴⁹

Asqar Mahkamning aksariyat she`rlarida kuz mavzusi bosh mavzu sifatida namoyon bo`ladi. Shoir kuz faslini sarg`aygan ko`zlarga, daraxtlardan tushayotgan barglarni esa go`yo daraxt tishlarini to`kayapti deya tasvirlaydi. Kuz fasli mening borlig`imni , yoshligimni , navqironligimni olib ketib meni telbaga aylantirdi deya shoir kuz faslidan sal gina qiladi. She`rning oxirgi bandida shoir men kuz faslidan

⁴⁹ Asqar Mahkam. Tazarru.-T.: “Ўкитувчи”,1973. 88-б.

boshimni olib ketdim va bu ketishim o`zimning boshimga yetdi , kuzning xazonlari meni devonalarga aylantirdi deya nola qiladi :

Men kuzlardan bosh olib ketdim,

ko`zlaringdan uzildi barglar...

Men o`zimning boshimga yetgum,

Asqar ...

Devonalar qildilar meni...

Shoirning yana bir she`rida kuz faslini uning borlig`ini olib ketganligini, ammo tunda hilol bo`lib qaytib kelishini , xazonlarni xazon ekan deb yuz burmalar bir kun yulduz bo`lib yonishini, olislardagi so`qmoqlar ham bir kun daryolarga aylanib qaytib kelishini, xazonlar ham yulduz bo`lishini badiiy tasvirlaydi. Shoir bu o`rinda o`zini ham bir kun yod etishni so`rab qoladi va meni bir kun yod etinglar , lekin menga tantanali marosimlar o`tkazib, nomimga madhiyalar aytib emas , balki pinhon va jim yod eting deb aytib o`tadi.

Bunda yulduzlarga ko`chgan xazonlar-

fazolarda yongan mening bir jonim...

Boshingga yulduzlar to`kilgan onlar

meni yod et pinhon,

meni yod et jim...

Shoir she`riyatida sochma (nasriy)she`r namunalarini ham kuzatish mumkin. Bunday she`rlarda shoirning lirik kechinmalari sochma nutq shaklida ifodalanib ,jo`shqin ritm bilan she`rga monand bo`ladi. Shoirning “Tazarru” to`plamidan o`rin olgan “Buxoroda bir kun bo`lganim” nomli she`ri ham sochma she`r sifatida talqin qilish mumkin. She`rda shoir Buxoroning amirlik davridagi holatini tasvirlaydi. Shoir xayolan o`rta asr xilxonalariga, Labihovuz atroflarida

sayr qiladi va amirlik davridagi qonxo`rliklar , aybsiz – aybdor kesilgan boshlardan, suyaklardan yasalgan minoralar , ko`zmunchoqli beshikdan , uloq-uloq darveshlar kiyimi jandadan , tili kesik devorlardan yaralgan tutlar meni qarshi oldi deydi shoir.Shoir millat ozodligi uchun kurashlarda mardonavor harakatlar olib borgan jadid ulamolarimizni ham tasvirlaydi. O`sha davrlarda vatan ozodligi uchun kurashgan bobolarimiz shavqatsizlarcha halokatga uchratilgan. She`rda ko`rsichqon obrazi berilgan bo`lib bu obraz o`sha davrdagi qo`rqoq insonlar timsoli bo`lib hisoblandi:

“Assalom – aleykum , Buxoroi Sharif !”- dedim...

Bu so`z og`ir edi.

Tilimni tanglayim bosib qoldi.

U devor ostidagi kovakka tumshug`ini

Cho`zgan ko`rsichqondek atrofga sergak nazar tashladi,

“Buxoroi Sharif ”- dedim.

Biroq ko`rsichqon kovakdan qo`rqoq kallasini qaytib chiqarmadi.

U qo`rqdi mendan - ikki oyoqli qopqondan.

Shoir Labihovuzda qad ko`targan Nasriddin afandining haykalini tanqid qiladi, afandining xo`tikchasi o`rnida odam bo`lganda ham bunchalik kulgili bo`lmaydi deb kinoya qiladi. Shoir bevosita Buxoroi Sharif bilan muloqotga kirishadi, shoir undan odamlar qanday yashayaptilar deb so`raydi va Buxoroi Sharif oldiniga yaxshi , keyingi so`rovlarda “yashashyapti ”so`zi titroq bilan chiqadi. Bu bilan shoir amirlik davrida insonlar juda nochor yashaganlilarini lekin hech kim buni ochiq aytishga jur`at etolmaganlilarini , jur`at etganlarning qismati nima bilan tugaganligini tarix yaqqol ko`rsatgan.

Men odamlarni so`radim Buxoroi Sharifdan .

“Yashashyapti!...”- dedi Buxoroi Sharif.

Ular yashashyapti

Madrasa itni

Xonaqoda kuchukni

Machitda suratlarni

Va o`zlarini boqib.

Albatta yaxshi yashashyapti!

Men odamlarni so`radim Buxoroi Sharifdan.

“Yashashyapti!...”- dedi Buxoroi Sharif.

Va albatta juda ham yaxshi yashashyapti.

Men odamlarni so`radim Buxoroi Sharifdan.

“Yashashyapti!...”- dedi Buxoroi Sharif.

“Ya-sha-shap-ti !...”dedi nogahon .

Shoirning “Yigirmanchi asr modernlari ” she’rida ushbu asrda yuz bergan falokatlar qalamga olinadi.Yigirmanchi asrda o`rmonzorlardagi jayronlarning aksariyati qirilib ketdi, atom bombalari ta`siri natijasida insoniyat boshiga ulkan falokatlar keldi, millatlar o`rtasidagi nizolar, dunyoni bo`lib olish siyosati masalasi, azon qatlamining yemirilishi natijasida kelib chiqqan global muammolar she`rda ta`sirli tarzda tasvirlangan. Insonlar orasida yo`qolib borayotgan mehr oqibat odamiylik, tobora avj olib borayotgan adovat, yovuzlik, shavqatsizlik, insonlarni ma`lum qolipga solib qoyish kabilar qalamga olingan.

Buyuk asr edi – xiradmand , fozil,

Buyuk asr edi ,tantiq , jangari.

Oqildan –da chandon ziyoda qotil,

Haytovur beshikdan ko`p edi qabri...

Shoirlarning qaysi mavzularda she`r yozishlari ham oldindan belgilab qo`yiladigan bo`lgan edi . Shoir ayniqsa adabiyot sohasidagi biqliklardan ko`ngli xira bo`ladi.

Adovat qo`r tikdi ilmu urfonga

Daholarni oldi aqchaga yollab.

Ulamoning qornin to`yg`izdi qonga ,

Miyasiga zaqqum quydi botmonlab .

Hukm qildi: “unut!...”

Farmon berdi : “ Esla!...”

Bir qolipga solib qo`ydi hammani .

“She`rni mana bunday yozasan ”, - deya

Etagiga oldi ahli adabni ...

Xonaki “Sino”lar boshlarni yorib,

Ko`rmay xanjarlarning egri izlarin-

Qotil, kallakesar bir yonda qolib ,

Tekshira boshlashdi odam hislarin...⁵⁰

Tarixdan bizga ma`lumki, insoniyat o`z boshidan turli davrlarni kechirgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida dastlab urug`ga ayol kishi boshchilik qilgan , oilaviy munosabatlar ham ona tomonga qarab belgilangan . Oilani oziq ovqat bilan ta`minlash onalarning zimmasida bo`lgan , pala – partish hayot kechirish

⁵⁰ Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 73-б.

natijasida ayollar qadsizlangan , xo`rlangan , oila bo`lib yashash degan tushuncha ham bo`lmagan . Hatto tug`ilgan bolalar o`z onalarini nikohga olganlar , to`g`ri u davrda nikoh tushunchasi ham bo`lmagan , qachonlardir bor mehrini bergan, vujudida to`qqiz oy ko`tarib yurgan, hayot atalmish ne`matni unga baxshida etgan buyuk zot ONAsini “xotin” qilib yashash endi, bundan ortiq vahshiylik, johillik, manqurtlik bo`lmasa kerak. Lekin ming afsus shunday holatlarga ham tarix guvoh bo`lgan. Asqar Mahkam “Obtidoiy odamning malomati” nomli she`rida ibtidoiy davrlarda bo`lgan shunday xunrezliklarni tasvirlaydi.

Vahshiy zavq shishirib ulkan qornini

Meni g`or tubida tug`di bir ayol.

So`ng ema boshladim uning qonini

(Oh , avval – intiho ilohiy jamol!...)

Oy zabun – irjaygan o`sha chanoqdek,

Uloqib yotibdi falak go`rida .

Suyagim men suygan bug`u shohidek

Ming yilkim yorishmas uning nurida .⁵¹

She`rdagi quyidagi manzaralar kishini dahshatga soladi va hattoki hayvondanda ham uchraydigan mehr - oqibat insonlarni tark etganligi tasvirlanadi. Inson ochligidan bir – birini yeyishi , ayollarning qadsizlanishi , zanjirband tog`larning tinimsiz ingrashi , quturgan quyoshning nur o`rniga simob tarqatishi haroratli misralarda tasvirlangan .

Quzg`unlar ...quzg`unlar , so`ngra odamlar

Taqsimlab ketishdi uryon jismimni ,

⁵¹ Asqar Mahkam. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 78-б.

Tishlarin gizladi ortda qolganlar

Hech vaqo topolmay yegach ismimni ,

Tishlarin gizladi ortda qolganlar

Hech vaqo topolmay yegach ismimni .

O`shanda men ko`rdim yolg`iz bir yirtqich,-

Yuzida azobning cho`ng ildizlari ,

Ko`zlari tubida tosh qotgan qo`rqinch,

Kuzatib turardi haris itlarni.

Shoir ushbu she`rda anafora san`atini qo`llagan ya`ni banddagi misra ,gaplarning boshida so`z yoki so`z birikmasining boshqa misralar boshida ham aynan takrorlanib kelishini qo`llash orqali badiiy san`at namunasini keltirgan .

Ne bois qonimdan qildi u hazar?

Ne bois yuzida vahshoniyat yo`q ?

Ne bois yemadi u meni battar ?...

Ne bois titrardi uning qo`llari ...

She`rning har bir misrasi insonni hayajonga solmay qo`ymaydi.Xo`sh, uning qonidan xazar qilgan , uni yemagan , so`yilgan kiyikning tuyoqlaridek titragan tillari bilan undan yuz o`girgan kim edi...balki, bu uning onasi , opasi yoxud singlisi timsolidagi ruhdir ... Barcha hayvonlar uning jismini , ismini yegan bir paytda u hayvon undan xazar qiladi. Nega meni yemading ey maxluq axir ochsanku deganda maxluq unga qarata:

U esa o`kirdi vahshiylarcha : “Yo`q!”

“Yo`q !- dedi ,- yo`q !- dedi,- oh , yo`q ”,- dedi u...

Ammo asrlar vaqtlar o`tishi bilan inson o`zining inson ekanligini his qila boshladi, g`orlarning bo`g`zidagi qonlar gulladi deganda shoir ibtidoiy odamlarning ibtidoiyligi asta sekin yo`qola boshladi demoqchi. Qanchadan qancha odamlar halok bo`lgan o`sha mashum g`orlarda ham maysalar unib chiqa boshladi, hammasi sekinlik bilan unutilib yangi hayot qurish sari olg`a qadam tashlana boshladi.

Shamollar anqidi yovuq –yiroqda ,

G`orlarning bo`g`zida gulladi qonlar .

Ayollar tin oldi so`ngsiz to`lg`oqdan

Va tinsiz o`lmoqdan tindi hayvonlar.

Zanjirband tog`larning zanjirlaridan

Bir – bir sinib tushdi temir halqalar.

Qon qusgan quyoshning ol nurlaridan

Chirigan go`rlarda undi maysalar...⁵²

Asqar Mahkamning “Sirot ko`prigi ” she`riga epigraf shaklida quyidagi qissa olingan bo`lib, ushbu epigrafda butun she`rning ma`no maqsadi bayon qilingan .

Alqissa , bebaqo dunyoi dunda avomunnos qonini simirgan, harom barqaror, halolning terisini shilgan , haqning ko`zni kovlab, nohaqqa qayishgan, fosiq va osiylarning joniga oro kirib, do`st-u qaridan, tuqqan – tug`ishganidan yuz borgan, oxiratulam ,siyratu suvrati alayno –oshkor kimsalar Sirot ko`prigi qoshida jamuljam bo`ldilar. Bu, ko`z ko`rib quloq eshitmagan izdihom haybatli tillarini osiltirib , uvvos solib yig`lardilar...

⁵² Asqar Mahkam. Tazarru.-T.: “Ўкитувчи”, 1973. 84-б.

Har bir inson vaqti soati yetib bu o`tkinchi dunyoni tark etganida narigi dunyoga o`tib olishini , jannat yoki do`zaxga tushishini u insonning hayotlik chog`larida qilgan yaxshiliklari, ezgu amallari yoxud qilgan yovuzliklari, gunohlari belgilab beradi. Sirot ko`prigidan o`tish ham shu amallar bilan belgilanib, kishining qilgan amallari uning boqiy dunyodagi taqdirini belgilaydi. Shoir o`limni bir umr tuproqni kemirgan , deysinib qo`zg`alar zil ko`rpasidan deb uyquga o`xshatadi. “Qissasi Rabg`uziy ”asaridan bizga ma`lumki dastlab shayton ham farishta bo`lgan , insonga hamma farishtalar sajda qilganda , shayton bunday qilmaydi,shoir bu she`rida shayton insonga qulluq qilishni xoxlamagani uchun uni ulug` shakkokka boqdilar hayron deya nola chekadi. Sirot ko`prigidan o`tayotganida shohlar ham gadolar bilan teng darajada turishini ta`kidlaydi. Ko`prikning ostida esa olov yonayotganligi , qismatdan qochib , qutulib bo`lmasligi , sultonlar endi o`rnidan turib vaz aytolmasligini aytadi.

Sultonlar , amirlar cho`k tushib siqtar,

Munkarlar ayqirib turar yonida,

Qizg`in oq tumoqni g`ijimlab siqar,

Qisirlab o`t olar ustixonida

Dunyoni egallashga harakat qilgan podshohlarning barchasi narigi dunyoga o`z mulkini olib ketolgan emas , bu dunyoga hech kim ustun bo`lgan emas,bu foniyy dunyo bizdan oldingilardan qolgan , bizdan keyin ham qoladi. Mana man degan sultonlar u amirlar dunyoni egallashga harakat qilganlar, biroq hech kim ustun bo`lmaydi bu dunyoga:

Qachonlar u shundoq va`z qilgan axir :

“Dunyoning avval u oxiri menman !”

Temurlang lang edi...Boyazid basir !...”

So`ng Puli Sirotga otar o`zini ,
Ostida guvlaydi vahshiy alanga .
Bir lahza yoritar yog`du yuzini ,
Qulaydi dunyoga da`vi tubanga ...
Ko`nikib qolgandek dod-u bedodga
Lojaram boqishar munkirlar bari.⁵³

Shoir ushbu she`rda podshohlarning nohaq to`ktirgan qonlari ularning ahli ayoli vazir u ulamolari hamma hammasi yonib kulga aylanishi tasvirlanadi. Arkoni davalatdan, arbob ahkomdan faqatgina qurumi ko`chmagan suyaklar qoldi, olisdagi oy ham bu bir fosiqning tani ekani, jir bitgan vujudlar jizillab yondi, kanizaklarni asragan itlar ham kuyib kulga aylandilar, xalqning tuzini yeb tuzlug`iga tupurgan maraznamo insonlar birovning haqqini yeyishdan hazar qilmagan, ishratdan kallasi chiqmagan zotlar, insof ko`chasidan o`tmagan zotlarning barchasi jazo maydonida sochilib yotishi tasvirlangan .

Oxirat emas bu ramaq emas bu,
Iblislar ikki ming yoshga kirdilar .
Qaytadan yaraldi jinlar jinsi-yu
Jinlardanda battar mumtoz jinnilar.

She`rning oxirgi bandlarida shoir o`quvchiga murojat qilib , bunday insonlarga achinmaslikka chorlaydi. Aslida bunday insonlar vatanini , millatini sotgan ,qalbi ham, qiblasini ham yo`qlar bo`lib, lekin bunday insonlarning bo`lganligi bizni harakatdan , yashash ishtiyoqidan so`ndirmasligi kerak. Qirq yil qirg`in kelganda ham bu xalqning sabri, bardoshi , matonati, e`tiqodining mustahkamligi abadiy

⁵³ Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 87-б.

bo`lib qolishi tasvirlangan. Haqiqat ,adolat kabi tushunchalar borki , ular bunday xalqning barhayotligini taminlaydi.

Bolam- ey achinma , achinma dildan.

Mana, boq kim edi aslida ular:

Vatanin ,millatin qorniga tiqqan

Qalbi yo`qlar ular ,qiblasini yo`qlar!...

Qirq yillik qirg`inda haq bu o`lmaydi.

Qirq yil yo qirq ming yil evrilar taqdir .

Adolat hukmidan qochib bo`lmaydi,

Yerda –go`r , osmonda panoh qaydadir?...

G`azal mulkinining sultoni bo`lmish mir Alisher Navoiy hayoti , ijodiy faoliyati bilan qiziqmagan ijodkorni topish mushkul. Shoirning hayot yo`li haqida afsonalar , rivoyatlar , dostonlar yaratilgan .Turli ijodkorlar tomonidan Navoiy ijodiy merosi turli aspektlarda o`rganilgan. Shoir Asqar Mahkam esa shoir hayotining so`nggi kunlarini qalamga oladi . Shoirning Navoiy va uning ijod yo`lini qalamga olgan she`rlardan biri bu shoirning “ Alisher Navoiyning so`nggi kunlari ” she`ri bo`lib ushbu she`rda Alisher Navoiy nafaqat g`azal mulkinining sultoni balki, oddiy bir inson sifatida shoirning o`y – mulohazalari tasvirlanadi. She`r Navoiyning Farididdin Attorga murojati bilan boshlanadi:

Ramaq yovuq keldi endi, Mavlono ,

Halqobalar bog`lar ko`zlarimda dor .

Vujudimda qoldi sizga bir sano ,

She`r –u vahdat aro beishq , beqaror.

Alisher Navoiyni shoir Asqar Mahkam oddiy bir inson sifatidagi o`ylarini tasvirlaydi. Navoiy erta-yu kech bedor bo`lib, xalq ahvolini yaxshilashning yana qanday yo`llari borligini doim o`ylab yuradi. Tarixdan bizga ma`lumki , Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro davrida vazirlik maqomiga ko`tarilgan bo`lsa-da, shoirning bu mavqeyini ko`rolmaydigan a`yonlar bo`lgan albatta. She`rda Navoiy o`zining bir ishongan yaqin mahrami yo`qligi, saroy a`yonlari o`rtasidagi fisqu – fasoddan shoirning ko`ngli aziyat chekadi. Sultonlar oldida bo`lsa-da doim xalq dardi bilan yuradi.

Nima ko`rdim ayyom xoqonlaridan ,

Anushervon kimdir ?, kimdir sultoni?...

Bexazon bog`larning xazonlarida

Mening o`lmas jonim – tayr lisoni .

Asqar Mahkam ushbu she`rda talmeh san`atini qo`llagan ya`ni she`rda o`tmishdagi mashhur zotlarga , mashhur qissa , mashhur bayt , mashhur maqolga ishora qilish , mashhur tarixiy yoki adabiy qahramon nomini keltirish usuli orqali hosil qilingan parcha talmeh san`atiga misol bo`ladi. Quyidagi misralarda ham shoir talmeh san`atini qo`llagan :

Ramaq yovuq keldi , Mavlono

Xalqobalar bog`lar ko`zlarimda dor.

Mavlono deganda shoir Farididdin Attorni nazarda tutgan. Yana bir misrada Farididdin Attorning mashhur asari “Mantiq ut-tayr ” asariga javoban yozilgan “Lison ut- tayr ” asari keltiriladi. Bu bayt ham talmeh san`atiga misol bo`ladi.

Bexazon bog`larning xazonlarida ,

Mening o`lmas jonim – tayr lisoni.

Alisher Navoiy tengsiz ilm sohibi bo`lishiga qaramay misli ko`rilmagan darajada ko`p va xo`b yozganiga qaramay u o`zining umridan rozi bo`lmaydi, ishq bobida

omadi yurishmaganidan sal noliydi. U ishqga murojat qilib Junun sahrosida qancha suyaklar sindi , mehrobiga orqa burgan a`yonlar men sizlarga nima deygin endi deya nola qiladi. O`sha davrdagi dinsizliklarni qoralab , agar podshoh xudodan kechsa olomon bedin bo`ladi.

Hirot bozorida bordir eshaklar ,

Odamfurushlarga men nima deyin?

Navoiy men emas , men –da hayronman ,

Ichimda ichakdek uzildi dorlar

Shoir o`zini itlarga qurbon bo`lganman, oyog`im tubida ilonlar o`ralaydi , na odam nimaligini , na olam nimaligini bilmasdan dunyodan o`tib ketayotganidan shoir afsuslanadi. Shoir umrining oxirlarida o`lim haqida o`limning haqligi bir kunmas bir kun har bir bandaning boshida borligi haqidagi o`ylari tasvirlanadi. Xudo menga mushtoq bo`lib lomakimda kutib turibdi, men esa zinda- zindoniylar tunlar bag`rida qalbim tubidagi dardlarimni aytishga bir inson yo`q , xalq dardini eshitadigan sulton yo`q deya ollohga nola qiladi va mehnatkash , sofdil , dili pok xalqqa murojat qilib :

Ne haqsan ? Ne xalqsan? Nimasan ? Gapir?

Ey mening tuqqanim ko`kaldoshlarim!...

Alisher Navoiy xalq dardini tushungan , ularning og`irini yengil qilish maqsadida qo`lidan kelgan barcha ishlarni qilgan , yetimlarni boshini silab, beva-bechoralarning mushkulini oson qilgan , masjid –madrasalar qurdirib, xalqning savodli bo`lishi yo`lida ko`plab savobli ishlarni qilgan, kanallarni, ariqlarni, xonaqohlar qurdirib xalq dardini yengillashtirgan . She`rning yakunida Navoiyning ma`naviy ustozlaridan biri Farididdin Attorga murojati keltiriladi:

Ramaq yovuq keldi endi ,Mavlono!

Halqobalar bog`lar ko`zlarimda dor .

Sujudimda bordir sizga bir sano,

Dag'i sizdan o'zga olamda kim bor?...

Asqar Mahkam she'rlarini o'qigan vaqtda inson yuragida allaqanday tushuncha paydo bo'ladi. Uning she'rlari shunchaki she'r emas, balki shoirning hayot, olam, insoniyat, ruhiyat va boshqa mavzulardagi kuzatganlari asosidagi dil so'zlari kabi jaranglaydi. Shoir she'rlarining asl mohiyatini tushunish murakkab bunda o'quvchi tasavvuf ilmidan xabardor bo'lishi kerak. Asqar Mahkam ijodi ulkan ummon va betakror jozibadan iborat. Uni qanchalik tadqiq qilmaylik bu xazina chashmasi sira tugamaydi. Hatto bir baytning ustida soatlab bahs olib borish, fikr yuritish mumkin. Sababi, unda irfon dunyosi yashaydi. Asqar shoir she'rlariga ilhom bergan narsa Qur'on oyatlari, hadis ilmi deb hisoblanadi va bu kitoblarga bo'lgan ulkan muhabbat uning ijodida o'z ta'sirini ko'rsatgan. She'rlardagi keskir qarashlar, shirin va ba'zan achchiq so'zlar shoir ijodida haqqoniy tilga olingan. Ya'ni, u yasama so'z termaydi, hijron deganida, boshqalar ham qo'shilib yonadi. Ishq deganida, o'zgalar ham oshiq bo'ladi, shoir nadomat chekkanida, o'quvchi ham qo'shilib, o'sha ruhiy holga beixtiyor tusha oladi. Shundan bilish mumkinki, Asqar Mahkam Haq yo'lida haqiqatni kuylab o'tgan yirik shoirlardan biri bo'lgan. Uning ijodidan bahra olgan qalb esa, hamisha osudalikda, shoir dunyosida u bilan birga yashaydi.

II bob Asqar Mahkam dostonnavis

2.1. Shoirning Boburga bag'ishlangan dostoni

XX asr o'zbek adabiyotida turkiy xalqlar tarixidan oltin nurlarini sohib turuvchi Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Bahovuddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Mashrab, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi yulduz siymolarning hayot yo'llarini badiiy talqin etuvchi asarlar yaratildi. Bu asarlarning dunyoga kelish vaqti har xil bo'lishiga qaramasdan ularning aksariga bitta narsa – sho'ro siyosati soya tashlab

turadi. Shuning uchun ham ular da tarixiy voqelik, tarixiy shaxs obrazi haqqoniy aks ettirilgan, deyish qiyin. Xalq og`zaki ijodida badiiy tajassumini topgan tarixiy siymolar orasida Amir Temur va Bobur alohida mavqega ega. Bu har ikki shaxs haqida ular tiriklik paytidayoq og`zaki va yozma adabiyot namunalari yaratilgan.

Tarixiy shaxs obrazini yaratish yo`lida o`zbek shoirlari olib borgan izlanishlar, avvalo, doston janrining tabiatiga bog`liq. Keyingi yillarda tarixiy shaxslar timsolini yaratishga qiziqishning kuchayib borayotganligi ham ruhiyat olami tasviri bilan bog`liq. Bu jihatdan olganda E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi, Muhammad Ali, H. Xudoyberdiyeva, Asqar Mahkam, U. Azim, Sh. Rahmon, X. Davron, M. Yusuf, Z. Mirzayeva, H. Ahmedova, A. Boyqo`ziyev kabilarning izlanishlari yaxshi samara berdi. Ular ijodida Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira kabi ulug` allomalar, shuningdek, XX asr ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, davrning og`riqli nuqtalaridan ahli jahonni ogoh etgan

V. Mayakovskiy, G. Lorca, R. Neruda, N. Hikmat, kabi so`z san`atkorlari timsollari katta mahorat bilan chizildi. Bemalol aytish mumkinki, ular tarixiy shaxslar timsollari vositasida bu kishilar qalbini bezovta qilayotgan masalalarni ham ko`rsata oldilar. Bu masalalarning bitta tomoni bo`lsa, ikkinchi tomoni tarixga va tarixiy shaxsga xolis baho berish, tarixiylik prinsiplariga to`la amal qilish, ular ijodida o`zining yaxshi samaralarini ko`rsatmoqda. Masalaning ushbu tomonlariga diqqatni qaratayotganimizning boisi shuki, sho`rolar siyosati hukmronligi davrida tarixga qora ko`zoynak ostidan qarash urf bo`lgan, ayniqsa, Bobur, Temur, Umarxon kabi shaxslar faqat hukmdor sifatida qaralib, ularning peshonasiga zolimlik tamg`alari bosilgan bo`lsa, Yassaviy, Naqshband, Boqirg`oniy, So`fi Olloyor esa diniy-mistik adabiyotning vakillari so`fizm targ`ibotchilari sifatida qaralib, ularga bid`at tarqatuvchilar tamg`asi bosildi.

Istiqlol bunday noto`g`ri qarashlarni bir xas kabi uchirib yubordi. Bizning dinga, uning targ`ibotchilariga munosabatimiz o`zgardi. Ularga armonli dunyoning armonli farzandlari sifatida qarash va shunday talqin qilish keyingi yillar she`riyatida ustuvorlik qila boshladiki, bu she`riyatdagi yangilanish jarayonlaridan

darak beruvchi bir holat sifatida qimmatlidir. Ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar adabiyotda ham bir qator sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirdi. Istiqlol arafasida shoir va yozuvchilarimizda tarixga, tarixiy mavzuga qiziqish, ayniqsa, kuchaydi. Tarixiy o'tmishni badiiy mujassamlashtirishga qaratilgan roman va qissalar, drama va dostonlar maydonga keldi. Boshqa janrlarda bo'lgani kabi, dostonchilikda bu borada yutuqlar qo'lga kiritildi. Istiqlol arafasi va istiqloq yillarida tarixiy siymolarning shaxs sifatida murakkab tomonlari talqini ijodkorlarning diqqat-e'tiborida bo'ladi. Abdulla Oripovning "Sohibqiron", Asqar Mahkamning "Tavajjuh", Usmon Azimning "Halil sulton", Ma'ruf Jalilning "Amir Temur qissasi" kabi asarlarida ifoda etilgan tarixiy siymolar, toj-u taxt shavqi bilan yashagan hukmdorlar sifatida emas, balki eng avvalo, o'z davrining fidoyi va mash'al farzandlari sifatida talqin etildi. So'nggi yillarda tarixiy mavzuda yozilgan dostonlardagi e'tiborga molik jihat shundaki, ularga, avvalo, tarixiy shaxslarning inson sifatidagi fazilatlarini ko'rsatishga e'tibor berildi, ularning ruhiy olamidagi ziddiyatlar tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda ko'rsatila boshlandi. O'zbek adabiyotshunosligida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlangan turli tadqiqotlar olib borilgan. 1948-yilda professor S.Aliyev Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyati xususida nomzodlik dissertatsiyasini yozgan. B.Valixojayev boburshunoslikka oid "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XX asrlar" qo'llanmasi, "Samarqand va Bobur", "Bobur va uning zamondoshlari ijodida tuyuq", "Bobur va tojik adabiyoti" kabi ilmiy maqolalari, R.Vohidov "Biz bilgan va bilmagan Bobur" asarlarda Bobur va uning ijodiy faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati haqida juda ko'p asarlar yaratilgan bo'lib Ismoil To'lakning "So'nggi kecha", To'lan Nizomning "Uch so'z", "Ruhlar qasidasi", Sirojiddin Sayyidning "Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur" kabi dostonlarda shoh va shoirning o'y-xayollari, orzu-niyatlari tasvirlanadi. Bu adabiyotimizda keyingi yillarda ro'y bergan yangicha yo'nalish, yangicha tamoyilning natijasidir. Ismoil To'lak "So'nggi kecha" dostonida Bobur hayotini umuman yoritishni maqsad qilib olmagan, shoir so'nggi bir kechada Bobur

xayolidan kechgan o`ylar, mulohazalar, xotiralar tasviri orqali uning shaxs sifatidagi qirralarini ko`rsatib bergan. Saltanatning qudratli sehri bilan emas, balki valiahdlik burchini da`vati bilan Hindistonga borgan hukmdor qalbidagi ziddiyatlarni tasvirlash shoirning asosiy maqsadini tashkil etgan. Ismoil To`lak yaratgan Bobur obrazida shohlikni darveshona kayfiyat bilan tasvirlangan etgan qalb kechinmalari ustuvorlik qiladi. To`lan Nizom “Uch so`z” dostonida Boburning “Tamomi umrida Boburga uch so`z aytibdur: Biri so`kinch-u biri qattiq-u biri yolg`on” degan satrlari peshso`z bo`lib xizmat qilgan. Bu satrlar ma`lum ma`noda Boburga o`zi tomonidan berilgan baho edi. To`lan Nizomning maqsadi Bobur shaxsi bilan bog`liq jangnomalarni madh etish emas, balki Vataniga, eliga, siym-u zarga shoirona darveshlik bilan munosabatda bo`lgan dilbar shaxs xarakterini ochishdir. Shuning uchun ham u Boburning Vatanni tashlab chiqib ketish voqealari tasviriga alohida ahamiyat beradi. Sevimli shoirimiz Asqar Mahkamning “Tavajjuh ” dostonida ham shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti ,ijodiy faoliyati,umr yo`li, hayoliy va hayotiy iztiroblari yorqin badiiy tasvirlarda berilgan. Dostonda Bobur Mirzoning oddiy bir inson sifatidagi o`y – mulohazalari tasvirlangan. Uning, eng avvalo, ruh kishisi, kayfiyat rassomi, taqdir bo`ronlari domida qolib, yo`l va najot axtargan darveshvash shaxs sifatidagi tomonlariga e`tibor qaratilgan.Tarixdan bizga ma`lumki,Boburning hayot faoliyati mashaqqatli , suronli kechgan bo`lib bu davrda Xurosonda feodal tarqoqlik hukm surar, har bir bek o`z ixtiyoricha ish tutishga harakat qilardi , hamma bir-biridan qo`rqar, o`zicha shohlik talab qilib mamlakatda ig`vo urug`ini sochardilar. Vujud qalasidan bir darcha ochdim deganda saroydagi o`zboshimchalikdan , ig`vogarchilikdan boshi berk ko`chaga kirib qolgan shoir bir lahza shohligini unutib butun hayotini mulohaza qilishga chog`lanadi:

Mayli, sen istasang tojim yondirib,

Yassaviy baayniq yerga botayin.

Yulduzlar qovrilib yotgan bu tunda

Yo Rabbiiy ,men yerda qandoq yotayin ?!

“Tavajjuh “dostonida shoir Boburning o`y- xayollarini shunday yuqori bo`yoqlarda beradiki , bunda shoh Bobur emas balki, tasavvuf ahlining bilimdoni ko`z oldimizda gavdalanadi. O`z vujudingizning quliga aylanmang, taningiz chirib bitmasidan oldin, ruhingizni yomonliklardan yiroqroq tuting, nafsiningizning domiga tushib qolmang deya nola qiladi. Tasavvuf adabiyotida qo`llanilgan har bir atamaning o`z istilohiy ma`nosi mavjud. Tasavvufda dunyo barcha shaytoniy istaklar jamlangan voqelik bo`lib nafsning yashashi uchun barcha qulayliklar mavjud bo`lgan makondir. Dunyoning so`qir ko`zlariga qaradim u mening nigohimga to`qnashmadi, qanchadan –qancha insonlarning qonini to`kkan qotillar afsus chekmadilar, dunyoning ko`zlariga tikilganimda uning ko`zlaridan nur taralmadi, keyin bilsam mening ko`zlarim ko`r ekan . Asqar Mahkam she`rlarining mazmunini anglash tasavvuf ilmini qay darajada egallash bilan baholanadi. Nega shoir dunyoning ko`zi ko`r emas , balki Boburning ko`zi ko`r deb tasvirlamoqda Bobur ma`rifat kishisi bo`lishi bilan bir vaqtning o`zida adolatli shoh hamdir. Saltanat ishlarida har doim ham adolat g`alaba qozonavermaydi, adolatsizliklar, nohaqliklar uchrab turadi. Shuning uchun ham asarda Bobur o`zini so`qir bo`lgan ekanim , ko`zlarimni shohlik shukuhi egallab olibdi deb tavba qiladi. Shohning ko`z oldidan qilgan barcha adolatsizliklari birma- bir o`ta boshlaydi.

Termildim , termildim banogoh bildim

Ki dunyo ko`r emas mening o`zim ko`r!

Dumalab keldilar qonga belanib ,

Sochlari to`zg`igan kesik kallalar,

Tushlarimga kirdi vovaylo qilib

Goho sharmandalar , goho bandalar...

Bobur hali yigirma yoshga yetmay turib taqdirning barcha issiq sovug`ini boshdan kechirdi. U goh unchalik nazarga tushmaydigan shahzoda qiyofasida , goh ulkan saltanat sohibi bo`lgan buyuk va qudratli shoh sifatida , goh mag`lub sarboz sifatida, goh g`olib sarkarda sifatida ko`z oldimizda namoyon bo`ladi. Lekin, har qanday sharoitda ham umidvorlik , mustahkam iroda kuchi , yaratganga shukronalik tuyg`usi uni tark etmadi. Ota yurtidan quvilib , eng yaqin hamrohlari bilan musofirlikning eng og`ir kunlarini boshdan kechirayotganida ham uning obro`si va shuhrati so`nmadi , minglab kishilarni o`z ortidan ergashtira bildi, ularni porloq kelajakka ishontira oldi. Bobur o`z umrini ezgu ishlar yo`lida baxshida qildi. Mirzo Boburning vafotiga qadar bo`lgan o`y –hayollari “Tavajjuh”da yorqin bo`yoqlarda tasvirlagan. Dastlab shoir jannat tasvirini beradi. Jannatda sahrolar suv bo`ladi, chashmalardan tumanlar paydo bo`ladi, yuziga oq kafan surtgan zohidlar qoshida oriflar paydo bo`ladi, saltanatni boshqargan hukmdor istasa istamasa hukmdorligi davrida qon to`kiladi shuning uchun ham shohlarning ko`zlari o`yilgan tarzda namoyon bo`lib, xushbo`y hidlar taralgan anjirzor bog`lardan Momo Havo paydo bo`ladilar. “Tavajjuh”da lirik qahramon o`zining menligini anglashga harakat qiladi, dostonida monologik nutq yetakchilik qiladi. Shoir ta`sirchanlikni oshirish maqsadida G`azzoliydan misol keltiradi:

G`azzoliy aytgandek : “Ey ,ahli bashar,

shu qadar pastsanki , hatto itmassan ”

Jannat tasviridan keyin Boburning qilgan gunohlari bir – bir ko`z oldidan o`ta boshlaydi. Oyog`im ostiga yiqilgan ahli bashar qiyomat kunida menga hech qanday yordam qilolmaydi, qilgan barcha ezgu ishlarim kelajagimni belgilaydi, yaxshiliklarim bir tomonda , yovuzliklarim bir tomonda , biroq roviylar aytdilarki :

Roviylar ochdilar sinoat lavhin,

Dedilar : “Ey mirzo, yozmishing qaro...”

Ibrohim Luddining yoy o`qi yanglig`

Janub bodi qoldi so`ngagim aro.⁵⁴

Bobur siymosida haqiqiy ruh kishisi tasvirlanadi. Tarixdan ma`lumki, Boburning hayot yo`li juda mashaqqatli, tahlikali onlarga to`la, mashaqqatli kechgan . So`nggi haqiqiy temuriy shahzoda bo`lgan Boburning taqdiriga qismat ne savdolar solmadi. Dostonda uning hayoti bilan bog`liq voqealar oddiy voqea tarzida tasvirlanmadi balki, uning ichki iztiroblari bilan bir vaqtning o`zida voqealar tasvirlandi. Bizga ma`lumni, Bobur vatan sog`inchi bilan bir umr yonib yashagan vatanidan olisda bo`lgan ulug` siymo . U shoh bo`lsa-da o`zligini yo`qotmadi, vatan sog`inchi unga bir umr hamroh bo`ldi. U o`zining Temur naslidan ekanligini hech qachon yoddan chiqarmadi. Dostonda Boburning ma`naviy olami yorqin ochib berilgan, temuriyzoda ekanligi juda ko`p o`rinlarda tasvirlangan:

Yo bor xudo , tuman jahongirdan so`ng ,

Qur`on ,qalam , qilich tutgan foniyman.

Yo Bor Xudo Temur naslidan chiqqan

Bodiyalar kechgan Andijoniyman...

“Tavajjuh”dostoni quyidagi she`rlardan tashkil topgan bo`lib , she`rlarni tasavvufiy yo`sinda tushunish maqsadga muvofiq. Ma`lum bir she`rni yozishda shoir boshqa she`rlarida uchramaydigan so`zlarni qo`llashga harakat qiladi. Doston quyidagi she`rlardan tuzilgan: “Mirzo Boburning muroqabasi”, “Mirzo Boburning qazo va qadar o`ylaganlari ” , “Mirzo Boburning vatan haqida o`ylari ”, “Mirzo Boburning ulusga arzi ” , “Mirzo Boburning fano va baqo haqida o`ylaganlari”, “Mirzo Boburning Alisher Navoiyga maktubi ”, “Mirzo Boburning vatanga marsiyasi ”, “Mirzo Boburning Shayboniyxonga maktubi ”, “Mirzo Boburning piri shayx Hikmatilloh Ibn Ziyodullohga maktubi”. Dostonning “Mirzo Boburning muqroqabasi” nomli she`rida Boburni mamlakat hukmdori sifatida emas ,balki ruh

⁵⁴ Asqar Mahkam . Tavajjuh.www.ziyo.uz.

kishisi sifatida tasvirlaydi, uning hayot haqidagi mushohadalari, o'z ichki dunyosi haqidagi o'y –hayollari, ko'ngil kechinmalari tasvirlanadi. Shu o'rinda Rahim Vohidovning “Biz bilgan va bilmagan Bobur” kitobidagi Boburga berilgan ta'rif fikrimizni tasdiqlaydi. “Zahiriddin Muhammad Bobur inson va adib, ma'daniyat arbobi va sarkarda, e'tiqodi butun taqvodor va shoh rostgo'y adabiyotshunos va alamzada ota maqomida bag'oyat murakkab ziddiyatlar to'lqini bilan yo'g'rilgan taqdir sohibi edi⁵⁵.” Dostonda Bobur qismati uning o'y-hayollari takorlanmas misralarda tasvirlangan. Dostonda Bobur shohlikdan ko'ra darveshlikni afzal ko'radi. O'ziga bir aso va kuloh keltirishlarini taxtini esa bolalarga o'yinchoq sifatida berishlarini so'raydi va o'sha davrdagi bid'at ruhidagi kishilarni qoralab ularning hayot yo'llari faqat nafslarini qondirib o'tayotganidan afsuslanadi:

Nima qoldi avlod – ajdodlaringga ,

Buyuk bir kechmishdan xayr-u sadaqa?...

Tomog'imni emas , ko'nglimni tutdim,

Osmon- ko'kraklari to'la zardoba!...

Keyingi misralarda shoir yorga murojat qilib menga bu dunyoda juda ko'p inomlar sovg'a qilindi, men do'st deb bilganlarim dushman bo'lib chiqdi, olloh menga iste'dod berib qo'limga qalam tutqazdi , biroq odamlar uni yulqib oldilar deya yoriga o'z ahvolini bayon qiladi. Ko'ngil kechinmalarini yoriga bayon qilgandan so'ng u endi shunday hislarning sababchisi bo'lmish ko'ngilga murojat qiladi. O'z boshiga kelgan barcha yaxshi va yomon voqealarning sababchisi sifatida ko'ngilni ayblaydi. Meni ne ko'ylarga solgan shu ko'nglim, bir qo'limda qilich ,birida qur'on bo'lsada men avvalo ko'nglimga quloq soldim, mening suvratinga qarab baholama, zohirda shoh ko'rinsamda, botinda zindon ichidagi quldekman, barchamizdan qoladigani bir hovuch kuldan bo'lak narsa emas , ham shoh ham

⁵⁵ Rahim Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur . “Fan”, 2000. -89 b

shoir bo`lib oqibatni oyoq osti bo`lganini ko`rdim deya ko`ngil bilan suhbatga kirishadi. Barcha insonda bo`lgani kabi Bobur Mirzoning ham o`z armonlari bo`lgan albatta, shoir Asqar Mahkam esa uning qalb kechinmalarini tasvirlar ekan avvalo inson sifatidagi xislatlarini mushohada qiladi:

Armon shohkosasin qopladi mog`or ,

Yuzlarimda ajin – zanjir, tushirgil,

Shablaringga shingil yulduz- uzumzor ,

Ey ko`ngil, ey ko`ngil ,ey telba ko`ngil!

Bobur Mirzo qomusiy ilm sohibi , jamoat arbobi sifatida o`zidan ulkan ma`naviy boylik qoldirdi. Boshqa odamlarnikidan deyarli farq qilmaydigan ko`ksida she`rning yuragi va jur`atini ko`tarib o`tgan bu mukarram zot aql bovar qilmaydigan kashfiyotlar bilan yuzma –yuz yashab o`tdi, o`zida sara ma`naviy xazina va nom qoldirish uchun kurashdi. Bobur Mirzo hatto o`z dushmanlarini ham siyladi, Ibrohim Lo`dining onasi Malika Baydani saroyga keltirib unga

izzat- ikrom ko`rsatdi. Hatto Boburga qarshi saroyda fitna tarqatib suiqasd uyishtirilsada shoh ularni kechirdi. Dostonda ushbu voqealar keltirilmaydi balki, shoir Mirzo Boburning iztiroblarini tasvirlashi natijasida inson hayolida uzoq tarix gavdalanadi.

Sarbon edim necha karvondan qoldim,

Makkaga qay yon yo`l ,senga qay yon yo`l ,

Hazrati odamdan qolgan yodgorim-

Ey ko`ngil ,ey ko`ngil, ey telba ko`ngil!

Shoir ko`ngilni hazrati insonga tenglashtiryapti , inson ko`ngli dunyodagi barcha narsadan nozik , uni chil- chil sindirish uchun bir og`iz so`z kifoya shu

o`rinda hazrat Alisher Navoiyning quyidagi baytlari bir insonni ko`nglini ko`tarish ka`bana borib ziyorat qilishga tenglashtiriladi:

Kimki, bir ko`ngli buzuqning xotirin yod aylagay,

Oncha borki, ka`ba vayron bo`lsa obod aylagay.

Har bir inson bu dunyoga yig`lab keladi, yig`lab tug`ilgan chaqaloqning yig`isida ham faqat ollohga ma`lum bir sir borday tuyiladi, kishiga . Yillar o`tgani sayin inson o`z bolalik onlarini unutadi go`yo bundan oldin bola bo`lmaganday tuyiladi. Shoir Asqar Mahkam esa Bobur obrazini yaratishda uning ma`lum yutuqlarini maqtash yo`lidan yoki voqealarga asoslangan doston yaratmaydi , o`zining inson sifatidagi qalb kechinmalarini Bobur obrazi orqali qog`ozga tushiradi.

Odamzod ilk yoshin oxir unutgan

Go`dak bo`lgan emas go`yo hech qachon,

Yig`layotgan bola tanglayin tutgan

Panjalardan sizib oqqan edi qon.

She`r so`nggida Boburning xalqqa bo`lgan muhabbati va nafrati ochiq tarzda bayon etiladi. Xalq boshidan kechgan og`ir , musibatli davrlar ko`z oldimizdan o`tadi. U dunyoni bozorga o`xshatib , duch kelgan “eshak” unga dallollik qildi deydi, bunday deyishga sabab Boburga qilingan suiqaedlar , mamlakatda fitna urug`ini sochayotgan nomard kimsalarni nazarda tutadi. Asqar Mahkam asarlari tilini tushunish oddiy kitobxonga murakkabdek tuyiladi , bu ham shoirning iste`dodidan darak desak xato bo`lmaydi. She`r oxirida Boburning vatanini qumsab, uning har bir qarich yeri uchun jon fido qilishga tayyorligi tasvirlangan. Movarounnahrdagi parokandalikni shoir “makoningga qaytgil, sohib yo`qdur ” deb tasvirlaydi. Dunyoning turli yurtlarini ko`rdim, vatanimdek aziz , makonimdek joni shirinim hech qayerda yo`q, bu olamda Boburga yagona tasallini o`n sakkiz ming olam va parvardigor beradi ,xolos . Buni quyidagi baytlar ham tasdiqlaydi:

Payg'ambari barhaq qilgay shafoat...

Tomog'imga cho'kkan joni shirinim ,

Makoningga qaytgilki, sohib yo'qdur.

Men ham dunyo kezib bir itdek bildim,

Senga bu olamda bir tolib yo'qdir...

O'n sakkiz ming olam va parvardigor...⁵⁶

“Tavajjuh”dan o`rin olgan “Mirzo Boburning vatan haqida o`ylari ” nomli she`rda Asqar Mahkam ushbu she`r boshida Jaloliddin Rumiyni esga oladilar bundan bilish mumkinki, shoir Hazrati Rumiyni ijodi bilan mukammal shug`ullangan . Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" kitobining birinchi daftaridan ayrim baytlarning sharhli tarjimasini yaratgan. Bobur Mirzoning vatan haqidagi o`ylari ham Rumiyni eslash bilan boshlanadi. Vatan haqidagi o`ylar deganda ko`pchilik shoirlarning she`rlarida vatanni madh etuvchi satrlar bo`ladi. Asqar Mahkam she`rlarida esa aksincha vatan qora, chirkin bo`yoqlarda beriladi. Albatta shoir bunda vatanni qoralash niyatida emas ,u o`tmishda bo`lgan urushlar natijasida mamlakatlarning tanazzulga yuz tutganligini tasvirlagan. Temuriylar sulolasining inqiroziga sabab bo`lgan asosiy omil bu shahzodalar o`rtasidagi toj-u taxt uchun bo`lgan kurashdir. Tarixdan ma`lumki, Mirzo Bobur temuriylar sulolasining oxirgi sultonlaridan biri bo`lgan . “Boburnoma”da ham Boburshoh buni alohida ta`kidlagan “Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sekkiz yuz to`qson to`qquzda Farg`ona viloyatida o`n ikki yoshta podshoh bo`ldum” degan davr, ya`ni otasi Umarshayx mirzo jordan uchib halok bo`lgandan keyin, Boburning taxtga o`tirgan paytdagi qisqa bir jarayonda kechgan shiddatli voqealar qalamga olingan.Boburning ijob dunyosiga nazar tashlasak vatan sog`inchi

⁵⁶Asqar Mahkam . Tavajjuh . www.ziyo.com.

mavzui ustuvorlik qiladi. Asqar Mahkam esa Mirzo Boburning sog`inch iztiroblarini emas, balki vatanda bo`layotgan nohaqliklar, buzuqliklar, mansabparastliklarni keskin qoralab lirik qahramon tomonidan vatan chirkin tasvirlarda beriladi. Shoir bir o`rinda vatan so`zini har bir misra boshida qo`llaydi jami bo`lib bir o`rinda yigirma marta qo`llangan . Asqar Mahkamning mahoratini shu o`rinda ham ko`rish mumkin.

Vatan- xotirasi jizg`anak tana,

Vatan –tili kesib tashlangan oqin.

Vatan –g`orlar uzra avaxtaxona ,

Vatan – ajdodi haq, avlodi xoin,

Vatan – tishlangan non tashlangan uvoq,

Vatan- muazzinlar so`yilgan masjid,

Vatan – Bahouddin qoshida buloq,

Vatan – Najmiddindan keyin o`lgan it...

Vatan – qilich tilgan mangayda chuqur ,

Vatan – darvishlarning bo`m- bo`sh kachkuli,

Vatan – vatan istab chiqib ketgan go`r ,

Vatan – qizi – juvon ,zanchalish – o`g`li...

Vatan – kamarini tushirgan nomard .

Asqar Mahkam Bobur tilidan so`zlagan ushbu she`rda o`sha davr manzaralari ko`z oldimizda gavdalanadi. Agar tirik bo`lsang barcha qilgan xatolaringni tuzat, kiftingdagi boshing o`zingnikimi, qurtlar bosib ketgan tojing o`zingnikimi kabi da`vatlar o`sha davrdagi zolim insonlarga qarata Boburning aytgan so`zlari edi. O`sha davrdagi ayollarning xo`rlanishi , xon haramidagi

qizlarning iffatini saqlash muammosi, urushlarda magʻlub boʻlgan mamlakat ayollarining fojealari keyingi baytlarda tasvirlanadi, “vatan”soʻzini misra boshida qoʻllash orqali taʼsirchanlikni oshirgan .

Vatan – ayolini xor qilgan elat,

Vatan – ayolini qul qilgan ulus,

Vatan – ayollarin zoʻrlagan davlat,

Vatan – ayollarin siynasida tuz...

Sheʼrda davr manzaralari oshkora qoralanadi. Bu bilan shoir barcha insonlarni yomonlamoqchi emas , lekin jamiyatda shunday odamlar borki oʻz nafsi yoʻlida hech narsadan qaytmaydi. Guruch kurmaksiz boʻlmaydi deganlaridek bunday odamlar Bobur mirzo davrida ham hozirda ham bor . Bobur tilidan bunday kimsalar haqoratlanib ,ularning bu ishlari vaqtinchalik ekanligi , yomonlar bir kun jazosini olishi muqarrarligi tasvirlanadi.

Najosat qopladi dillar boʻyini

Parilar yulqadi muflislar chirkin.

Sabr qil, ey koʻngil, bu it oʻyini

Ado boʻlgay yana toʻrt kundan keyin...

“Tavajjuh ”dan oʻrin olgan navbatdagi sheʼr “Mirzo Boburning ulusga arzi ” deb nomlanadi. Ushbu sheʼr faqat oʻsha davr uchun emas hozirgi zamon uchun ham tegishli . Hozirgi tinchlikning qadriga yetishga undaydi. Bobur xalqqa murojat qilib xalqni vayronagarchiliklarga olib kelgan sabablarni koʻrsatadi. Xalqni daryolarini toʻngʻiz bulgʻadi, seni koʻzlaringga qoʻlini tiqqanlar, orqangdan pichoq suqqanlar oʻz ichingdan chiqqan xoinlar edi. Xalqim sigʻinsang faqat xudoga sigʻin oʻzga bir xalqqa sigʻinma , suyagingni xor qilsalar ham yuragingni xor qilishlariga yoʻl qoʻyma , oʻgʻlonlaringni boshi ketsa ketsin , ayollaringni xor qilishlariga yoʻl qoʻyma kabi chaqiriqlar mavjud. Bobur xalqni ulugʻ darajada

ko`rishni istaydi. Temuriylar sulolasi inqirozining keltirgan oqibatlarini xalq ahvolini yomonlashtirdi. Bobur Mirzo taxtga chiqqan vaqtda atrof o`lkalar taxtini tajribali, makkor sulton beklar o`tirar edi. Ularning ko`plari ko`p o`tmay o`sha davrga xos bo`lgan baloga- saroy fitnalari –yu g`iybat va ig`volar qurboni bo`ldilar. Shavqatsiz taqdir shamoli Bobur Mirzoni uzoq ellarga eltib tashladi. Lekin jismidagi g`ayrat –shijoati , mustahkam irodasi va yaratganga bo`lgan sadoqati tufayli u hayot bo`ronlariga bardosh berib ,ulardan ustun keldi. Bobur doimo xalqi uchun jon fido qilishga tayyor edi, hatto hind xalqi ham uning hukmronlik davrida ahil – inoq yashagan.

“Tavajjuh”da Asqar Mahkam Boburning vatanparvalik, xalqparvarlik, oliyjanoblik, sofdillik kabi xislatlarini yaqqol namoyon qilgan . She`r so`nggida Bobur vatanning har bir qarich yerini asrash kerakligini , o`zining qismatini hech kimning boshiga tushmasligini , Navoiy, Temurlarning avlodi hali uzoq davom etishini , Samarqand va Buxoroni xor qilmasliklarini xalqdan so`rab qoladi.

Ey xalq, men ham bitta bandai xokman,

Ey xalq, banda bo`lgil xok qadar omiyn!...

Bu mulki dahr asli bir behudud qabr –

Bir kun ado qilsak umrlar shomin,

Ey xalq, diydorlashuv so`zi mahshardir,

Ey xalq, xudo seni asrasin , omiyn!...

Asqar Mahkamning Boburga bag`ishlangan “Tavajjuh ”dostoni shu yo`nalishdagi dostonlardan butunlay farq qiladi. Boburga bag`ishlangan dostonlarda Bobur hayoti bilan bog`liq voqealar tasvirlansa ,”Tavajjuh”da esa deyarli voqea tasvirlanmaydi, unda lirik qahramonning o`y –xayollari, orzu-istaklari tasvirlanadi. Dostonni qancha o`rgansak, undan yangi-yangi ma`nolarni ilg`ashimiz mumkin.

2.2 Asqar Mahkam dostonlaridagi badiiy san`atlar.

Mustaqillik davri o`zbek dostonlarining ifoda uslubiga xos xususiyatlar XX-asrning 60-80- yillarida yaratilgan dostonlardagiga qaraganda ramzlarga birmuncha boyligi bilan farq qiladi. Bu davrda yaratilgan dostonlardagi poetik sintaksisning bir qator unsurlari : ritorik so`roq , ritorik murojaat , anafora , ellipsis, sukut singarilarda , mahorat bilan foydalanilganligi kuzatiladi. Adabiyotshunos Sh. Hasanovning yozishicha , “Lirikaga xos takrorlar , qaytariqlar , ta`kidlar , intonatsiyalar, ritorik so`roq va murojaatlar ham lirik “men”ning dostoniy qiyofasini yaratishda muhim rol o`ynamoqda ”. Asqar Mahkamning “Fotiha “ dostoniga epigraf sifatida “Buyuk Qur`on ” kitobidan quyidagi hadis olingan “Mening jonim tasarrufida bo`lgan Zot (olloh )bilan qasam ichamanki, Tavrotda ham , Injilda ham, Zaburda ham, Furqon(qur`on)da ham bunga o`xshash tushurilmagan”. Asqar Mahkamning “Fotiha ” poemasida ellipsis falsafiylik, hayotiylikni ifodalovchi vosita sifatida qatnashgan :

O`zi bor O`zi bir O`zi barhaq,...

O`zi - Shoh O`zi - Sulton O`zi – hukmdor...

O`zi – yo`l O`zi – Manzil O`zi – maqsud...⁵⁷

Avvalo, bunda tinish belgilari tushirib qoldirilgan , chunki har qanday tinish belgi bo`lishi yoki bo`lmasligidan qat`iy nazar “O`zi ” Olloh nomi sifatida bosh harf bilan yozilaveradi, demoqchi shoir . Qolaversa, “O`zi”- Olloh Yaratuvchining sifatlari ellipsis orqali yanada aniqroq ifoda etilgan. Bunda ellipsis ega va ot kesim munosabati orqali voqe bo`lgan . “Adabiyotning birinchi elementi- tildir. Til adabiyotning asosiy qurolidir , faktlari bilan birga

⁵⁷ Asqar Mahkam. Tazarru.-T.: “Ўқитувчи”, 1973. – 125- б.

uning materialidir ” deb yozgan edi A.M.Gorkiy⁵⁸. Badiiy tilning o`ziga xosligi u o`quvchiga badiiy ta`sir ko`rsatish vazifasini ham bajaradi. Asqar Mahkam dostonlarining badiiy ta`sir ko`rsatish darajasi dostonlarda qo`llangan so`zlarning ta`sir kuchi bilan belgilanadi. Asqar Mahkamning “Tavajjuh” dostoni Mirzo Bobur hayoti, ijodi, umr yo`li, fikr-mulohazalari badiiy tasvir vositalari orqali falsafiy ruhda yozilgan. Doston quyidagi she`rlardan tuzilgan: “Mirzo Boburning muroqabasi”, “Mirzo Boburning qazo va qadar o`ylaganlari.”, “Mirzo Boburning vatan haqida o`ylari”, “Mirzo Boburning ulusga arzi”, “Mirzo Boburning fano va baqo haqida o`ylaganlari”, “Mirzo Boburning Alisher Navoiyga maktubi”, “Mirzo Boburning vatanga marsiyasi”, “Mirzo Boburning Shayboniylarga maktubi”, “Mirzo Boburning piri shayx Hikmatilloh Ibn Ziyodullohga maktubi” kabilar. “Tavajjuh” dostonida maktub monolog usulidan ko`p o`rinlarda foydalanilgan bu asarning ta`sir kuchini oshirish bilan birga lirik qahramonning ko`ngil kechinmalarini yorqinroq tasvirlaydi. Maktub orqali his –kechinmalarni ifoda etish o`zbek mumtoz adabiyotida bundan tashqari dunyo adabiyotida ko`p uchraydi. XX asr ikkinchi yarmi o`zbek poemachiligida maktub bitish usulidan samarali foydalanish asosida monologning yana bir yangi ko`rinishi vujudga keldi. Lirik qahramonning ko`ngil kechinmalarini maktub orqali ifoda etish Asqar Mahkamning “Tavajjuh” dostonida yorqin kuzatiladi. Asardagi maktublarda murojat ruhi ustuvor bo`lib, shoir Bobur hayotining millat va vatan taqdiridagi g`oyat muhim jihatlarini, ruhiy holatlarini qalamga oladi. Mirzo Bobur maktublari orasida Alisher Navoiyga yo`llagan maktubi alohida o`ringa ega. Ushbu maktubda Bobur o`zining pir-u ustози Alisher Navoiyga dardlarini, alamli kechinmalarini to`kib soladi.<sup>59</sup> U ulug` shoirning millat, vatan oldidagi xizmatlarini e`tirof etgan holda, xalqning fojealarini ham qalamga oladi:

⁵⁸ Шарафиддинов О. Замон – Қалб Поезия. Тошкент. “Маънавият”, 1962.

70- б

⁵⁹ Д.Кувватова. «Таважжух» поемасида мактуб-монолог» Филология масалалар 7. Тошкент: "Фан" нашриёти, 2013, 288 бет, 90- 93- бетлар.

Hazratim ,saroyi turk lisonini
Samumdan samoga eltdi tab`ingiz
Maktubda avvalo Alisher Navoiyning o`zbek tilini yuksaltirishdagi xizmatiga
e`tibor berilgan.

Hazratim, siz ilk bor sargashta turning ,
To`zonlarin asta yuzdan artdingiz.
Sahroyi go`rlarda yotgan o`likning ,
Tomiriga kirib bordi baytingiz.

Alisher Navoiy turkiy tilning boy til ekanligini isbotlab , o`z asarlarini shu tilda yozgani ma`lum. Shoir shunga asoslanib , o`zbek tilini yuksaklikka ko`tarish orqali uning yuzidagi to`zonlarni artdi. Shu tarzda g`aflatda yotganlarning tomiriga Navoiy baytlari singa bordi:

Pirim, siz yakqalam qilgan bu yurtlar
Yakka – yakka bo`lib so`ydi bir – birin.
Qonga botdi devon ichra surudlar,
Oyoq osti bo`ldi Qoshg`ariy tili.

Bu misralar tarix sahifalardan so`zlaydi. Navoiy yashagan davrda o`zaro taxt talashishlar avj oldi. Shoir “qonga botdi devon ichra surudlar”der ekan , turkiy tilda yaratilgan nazm durdonalarini nazarda tutadi. Mahmud Qoshg`ariy o`zbek tili lug`atini tuzib , xalqqa taqdim etgan . Shuning uchun shoir “Qoshg`ariy tili“ turkiy tilning oyoq osti bo`lganligidan afsus nadomatlar chekadi. Bundan tashqari “Mirzo Boburning Shayboniyxonga maktubi”da Bobur Shayboniyga murojat qiladi. Unda oddiy insonning hayot haqidagi fikrlari bayon etiladi:

Shohona jismimiz tugasa chirib ,
Na Shaybon ,na Bobur bir siqim yermiz.

Insonning bu dunyodagi hayoti cheklangan.Uning eng ezgu amallari yorug` dunyoda qadr , u dunyoda esa abadiyat topadi. Shu ma`noda jism abadiy emas. Bu misralarda Yassaviy ruhi sezilib turadi. Ya`ni Bobur aytmogchi , shoh ayni zamonda oddiy inson hamdir . Demak, Bobur ham , Shayboniy ham bu dunyoni

tark etgach , bir siqim tuproqqa aylanadi. Asqar Mahkam ana shundan bugunning insonlarini ogohlantiradi. Ma`lumki, Bobur va Shayboniy bir davrda shohlikka erishganlar. Boburning Shayboniyxonga nafrati baland shoh bo`lgani uchun emas , shohlikdagi nomaqbul yo`li , ishlari uchun :

Siz uchun , egarda yo`rgaklangan xon,

Andijon xokidan urvoq bermasman,

“Egarda yo`rgaklangan xon ” – Shayboniyxondir. Bunda Shayboniy xarakteriga xos takabburlik , xudbinlik aks etgan . Bobur necha qonli voqealar, adolatsizliklarga guvoh bo`lgani uchun , shoirona qalb va yuksak aql bilan ularning oldini olishga , xalqparvar bo`lishga harakat qilgan . Shu jihatga ko`ra u o`zini Shayboniy bilan bir qatorda ko`rmaydi. Umuman olganda,Asqar Mahkam maktub usuli orqali Boburning millatparvar , vatanparvar sifatidagi siymosini va uning o`z zamondoshlariga munosabatini ifoda etadi. Boburning o`kinch va alamlarga to`la maktublarida tarixiy shaxslarga murojaat etish orqali millatning fojealarga to`la murakkab davrlarini qalamga oladi. Dostonda badiiy san`atlarni ko`p o`rinlarda kuzatish mumkin.

Asqar Mahkam “ Tavajjuh “da tovushlar ohangdorlini keltirish orqali alliteratsiyani hosil qilgan :

Miltiray boshladin jaholatgohlar,

Qoni qoq qaqragan qalblarning qa`ri

Baytda ma`no jihatidan zid so`zlarni keltirish orqali tazod san`ati hosil bo`ladi.Shoir quyidagi misralarda gado va podshoh so`zlarini antonim so`zlar sifatida qo`llagan :

Tomog`imni yordi navhai bulbul,

Sen bir **gado** eding, men **podshoh** edim

Banddagi misra , gaplarning boshidagi so`z yoki so`z birikmasining boshqa misralar boshida ham takrorlanib kelishi orqali anafora badiiy san`ati namunasi keltiriladi. Misralar boshida takror so`zlarni keltirish badiiy ta`sirchanlikni oshiradi.

Ogoh bo`l ,hech narsa qolmas olamda ,

Ogoh bo`l, hech narsa , qolmas ey inson!

Ogoh bo`l , hech narsa ,qolmas olamda ,

Ogoh bo`l, qolgaydir ,birgina iymon.

Talmeh orqali dostonida Majnun obrazi keltiriladi,Bobur yoriga murojaat qilib ,
o`zini ishq uchun sahrolarni kezgan Majnunga qiyoslaydi :

Men-da yori zorman , men-da xoru zor,

Men-da **Majnun**, men-da bir beasar go`l,

Qo`limda tig` , ko`ksim sahrosida **Qays**,

Ichganim ko`ngillar ichra ilonlar.

Tamsil san`ati orqali Farididdin Attordan bayt keltirib o`z fikrini dalillaydi,
Ollohning yagona ekanligi, har bir insonning qalbida mavjud bo`lishini
ta`kidlaydi:

Dedi Farididdin Attor :“**Ey banda**

joh istasang past bo`lgilki, pastlik johdir...”

Dedi Farididdin Attor: “**Ey banda**

olamda haq – yakka – yolg`iz Ollohdr!...”

Asqar Mahkam she`rlaridagi har bir badiiy san`at o`ziga xos o`ringa ega bo`lib
har biri alohida mazmunga ega. Ulug` adibimiz Abdulla Qahhor asar
qahramonining xarakter darajasiga ko`tarilishini adabiyot uy daftarida yangi
insonning paydo bo`lishiga qiyos etgan edi. Asqar Mahkam “Tavajjuh” dostonida
shoh va shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur timsolini yaratishda
uning turli qirralarini to`la-to`kis aks ettirish orqali o`zbek dostonchiligi “uy
daftarida” yangi bir milliy xarakterning paydo bo`lishiga erishdi.

Xulosa.

Ijod bu juda murakkab jarayon.Uni tahlil qilish ham o`ziga yarasha
qiyinchiliklarni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, biz ijodi kam o`rganilgan
ijodkorlardan biri bo`lmish fidoyi inson, muallim, jamoat arbobi, qalbi kuyga to`la

shoir Asqar Mahkam she`riyatining ba`zi qirralarini tadqiq etishga harakat qildik. Asqar Mahkam ijodi hali o`zbek kitobxoni tomonidan to`liq o`rganilmagan. Oxir – oqibat shoirning yuksak she`riyati lovullab turgan vulqon kabi yuraklarni larzaga soladi, asl she`riyatni sog`ingan sonsiz insonlar uning hayratiga, hasratiga sherik bo`ladi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida Asqar Mahkam ijodining o`zbek she`riyatida tutgan o`rni haqida bahs yuritdik. Shoirning she`r va dostonlarida milliy ozodlik mavzusining tarannum etilishi va unda lirik qahramon xarakterini shakllantirish va yaratish masalasi ustida o`z mulohazalarimizni berishga harakat qildik. Uning she`rlari ham mavzu e`tibori bilan shu davrdagi ko`plab ijodkorlarning she`rlari bilan hamohang. Biroq ana shu bizga tanish bo`lgan mavzular, tanish kechinmalar, tuyg`ular uning she`rlarida tamoman yangi, o`ziga xos ohangda, ranglarda o`z tajassumini topgan. Shoirning she`rlarini o`qiganda ona yurtimizni yangitdan taniyotgandek bo`lasan, Vatan, ona, tabiat haqida qanchadan-qancha she`rlar yozilganiga qaramay, biz yana qayta hayajonlanamiz, bir olam zavq olamiz. Shoir lirikasining xalq ardog`ida bo`lishining sababi shundaki, unda Vatanni sevish, xalqparvarlik, ezgulik va adolat, ilohiy sevgini ulug`lash, ilm-ma`rifatga da`vat singari umuminsoniy tuyg`ularning kuylanishi bilan birga, ularning yuksak she`riy san`atlar vositasida nuktadonlik bilan zavqbxash tarzda ifodalanishidir. Uning she`rlarida yuqorida keltirilgan yuksak ma`naviy tuyg`ular qurshovida tasvirga olingan doston qahramonlari va lirik qahramonlar xakteri o`zining badiiy ifodasini topgan. Shoir she`r va dostonlarida milliy xarakterlar yaratish jarayonida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan milliy urf-odatlar, qadriyatlar va ulug` fazilatlardan unumli foydalangan.

Asqar Mahkam she`riy asarlarining lirik qahramoniga avvaldan tanish bir yaqin kishingiz kabi tezda o`rganib qolasiz va u asar davomida sizdan bir muddat bo`lsa-da uzoqlashmaydi, aksincha asar oxirida sizning yaqin qadrdonlaringizdan biriga aylanib qoladi. Demak shoir o`z qahramonlaridan xarakter yarata oldi, ko`zlagan maqsadiga erishdi. Masalan, Onasi haqida yozar ekan, oppoq ro`molli,

sizning yo`lingizni kutib charchamaydigan, kichik bir yutug`ingizdan terisiga sig`may quvonadigan, muvaffaqiyatsizligingizdan o`zingizdan ham ko`proq g`amga botadigan o`z onayizingiz ko`z oldingizga keladi. O`zbekning qadoq qo`li bilan oltin yaratadigan dehqoni haqida yozar ekan, ishlab charchamaydigan, erta bahordan kech kuzga qadar dalasidan bir dam bo`lsa-da ayrilmaydigan, qilgan mehnatining samarasi o`laroq hosildan tog`-tog` xirmon ko`taradigan, o`z mehnatidan olam-olam zavq ola biladigan mirishkor o`zbek dehqonining adabiy portretini mahorat bilan chizadi va bu milliy qahramon xarakterini talqin etishda yordam beradi. Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida esa shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburga bag`ishlangan “Tavajjuh ” dostoni tahlil qilingan. Boburga bag`ishlangan dostonlar soni adabiyotimizda ko`p miqdorni tashkil etsada Asqar Mahkam dostoni ulardan butunlay farq qiladi. Dostonda Bobur obrazi orqali lirik qahramonning ichki his- tuyg`ulari tasvirlanadi. Dostonda Bobur Mirzo xarakterini ochib berish jarayonida uning farzand, ota, shoh, shoir, yor, umuman, inson sifatidagi fazilatlarining birortasi e`tibordan chetda qoldirilmagan.Uning yuksak vatanparvarlik tuyg`usi bilan limo-lim qalb tarjimai esa dostonda yuqori darajada doimiy ravishda berib boriladi. Xullas, shoir dostonnavis sifatida tarixiy mashhur siymolarning har tomonlama yetuk badiiy obrazini yaratishga harakat qilgan. Bu tarixiy shaxslarning xarakterini oshib berishda tarix faktlariga suyanish tamoyili ustuvorlik qilgan, ruhiy psixologik tahlilga katta ahamiyat berilgan. Asqar Mahkamning shoirlik mahorati yuksak bo`lib, uning she`rlarini o`rganish orqali tasavvuf ilmından ham bahramand bo`lish mumkin. Shoir she`rlari badiiy tasvir usullarining rang – barangligi bilan o`quvchilarni o`ziga jalb qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

I. Huquqiy normativ hujjatlar :

I.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari :

1. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T. : “Ma`naviyat”, 2008.178-b.
2. Karimov I. A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. – T. : “O`zbekiston”, 2007.
3. Karimov I. A. Adabiyotga e`tibor –ma`naviyatga , kelajakka e`tibor.T.: “O`zbekiston “,2010.-39 b.
4. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T. : “O`zbekiston”, 2005.
- 5.Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-T: “O`zbekison”, 2000.

II Asosiy adabiyotlar :

Ilmiy risola , darslik va o`quv qo`llanmalar :

6. Ahmad Abdullayev . Tasavvuf va uning namoyondalari. Ilmiy – ommabop risola .Termiz, 2007. -213 b.
7. Адабиёт назарияси . Издат Султон.Тошкент. «Ўқитувчи »1989.-378 б.
8. Абу Лайс Ас-Самарқандий. Танбеҳул ғофилийн. Мовар. Т.: 2003. -218 б.
- 9.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари Т:.. “ Шарқ” НМК. 2002.-340 б.
10. Imomov K. va boshqalar. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –T: “O`qituvchi”, 1990. - 265 b.
- 11.Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент :“Фан” , 2007. – 226 б.

12. N.Komilov.Xizr chashmasi. “Ma`naviyat”.T.:2005.-97 b.
- 13.Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент. “Маънавият”, 2006.
-432 б.
14. Шарафиддинов О. Замон – Қалб Поезия. Тошкент. “Маънавият” ,1962.
-270 б.
15. Rahim Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur . “Fan”,2000.-89 b
16. Tabriz daftari . "Al-Xudo" xalqaro nash."Minhoj" , T.: 2004. -132 b
17. G`ofurjon Sotimov . “Boburiyzodalar”.Toshkent : “Ma`naviyat”, 2003.-71 b

III. Qo`shimcha adabiyotlar :

Badiiy adabiyotlar :

- 18.Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик
7-том. “Фан”,Т.:1991 . -422 б.
19. А. Навоий. Маҳбуб ул қулуб. Мукаммал асарлар тўплами 14-жилд.
“Фан”,Т.: 1998. -147 б.
21. Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”,1973. - 245 б.
22. Асқар Маҳкам. Ҳақ. “Адиб”, Душанбе. 1998. – 210 б.
23. А.Маҳкам. Аналҳақ. “Абдулла Қодирий”, Т.: 2003.- 136 б.
24. Абу Лайс Ас-Самарқандий. Танбеҳул ғофилийн. Мовар. Т.: 2003. - 218 б
- 25.Tabriz daftari "Al-Xudo" xalqaro nashriyoti,"Minhoj" , T.: 2004. -132b

Ilmiy jurnallardagi maqolalar :

- 26.Abdulla A`zam .Ozod domla formulalari.Tafakkur jurnali, 2004,3-son.23-b.
27. Alisher Narzullo. Har lahzada tazarru.www.ziyo.com.
28. Asqar Mahkam Men yarmi – fors , yarmi turkiyman www.fikr.uz.

29. Д.Қувватова. «Таважжух» поемасида мактуб-монолог» Филология масалалар 7. Тошкент: "Фан" нашриёти, 2013, 288 бет, 90- 93- бетлар.
30. Ikrom Otamurod .Men endi ketarman pinhon va yolg`iz. www.fikr.com
31. Jabbor Omonturdiyev. So`zning tasavvufiy talqini. Tafakkur .2000. 28- bet;
32. Nabijon Boqiy . Asqar Mahkam Kofarnihonga qaytdi.www.ziyo.uz.
33. Nabijon Boqiy. Bolalikdan bolalikka qaytgan shoir.www.kutubxona.uz
34. Ne`matullo Ibrohim. “Men shoir emas shunchaki rostgo`y edim”www.ziyo.uz
35. Odil Ikrom. Qahraton qishlarda vidolar aytdim.www.fikr.uz
36. Xurshid Davron “Osmonga talpingan shoir”www.ziyo.uz.
37. Yusufali Shonazarov.Goh so`yladik uryon , gohi munaqqa.www.fikr.uz

Avtoreferatlar:

38. Sodiqova R. Hozirgi o`zbek dostonlarida mashhur siymolar obrazining yaratilishi va badiiy izlanishlar. Avtoreferat. – T. : O`zbekiston, 2002, - 191-b.

Lug`atlar:

- 39.Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент : Уқитувчи,1970.-299 б.
- 40.Ўзбек тилининг изоҳли луғати .- Тошкент: Давлат илмий нашриёти.www.ziyouz.com.kutubxona.
41. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T: Akademnashr. 2010. 173-b.

Internet saytlari :

- 42.www.literature.uz
- 43.www.google.co.uz, www.rambler.ru
- 44.www. Ziyo.uz
- 45.http://fikr.uz/posts/adabiyot

Adabiyotlar ro`yxati:

Huquqiy normativ hujjatlar :

I.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari :

1. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T. : “Ma`naviyat”, 2008.178-b.
2. Karimov I. A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. – T. : “O`zbekiston”, 2007.
3. Karimov I. A. Adabiyotga e`tibor –ma`naviyatga , kelajakka e`tibor.T.: “O`zbekiston “,2010.-39 b.
4. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T. : “O`zbekiston”, 2005.
- 5.Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-T: “O`zbekison”, 2000.

II Asosiy adabiyotlar :

Ilmiy risola , darslik va o`quv qo`llanmalar :

6. Ahmad Abdullayev . Tasavvuf va uning namoyondalari. Ilmiy – ommabop risola .Termiz, 2007. -213 b.

7. Адабиёт назарияси . Издат Султон.Тошкент. «Укитувчи »1989.-378 б.

8. Абу Лайс Ас-Самарқандий. Танбеҳул ғофилийн. Мовар. Т.: 2003. -218 б.

9.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари Т.: “ Шарқ” НМК. 2002.-340 б.

10. Imomov K. va boshqalar. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –Т: “O`qituvchi”, 1990. - 265 b.

11.Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент :“Фан” , 2007. – 226 б.

12. N.Komilov.Xizir chashmasi. “Ma`naviyat”.Т.:2005.-97 б.

13.Шараффиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент.«Маънавият» 2006.
-432 б.

14. Шараффиддинов О. Замон – Калб Поезия. Тошкент.«Маънавият» ,1962.
-270 б

15. Rahim Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur . “Fan”,2000.-89 b

16. Tabriz daftari . "Al-Hudo" xalqaro nash."Minhoj" , Т.: 2004. -132 b

17. G`ofurjon Sotimov . “Boburiyzodalar”.Toshkent : “Ma`naviyat”, 2003.-71 b

II. Qo`shimcha adabiyotlar :

Badiiy adabiyotlar :

18.Алишер Навоий. Хайратул аброр. Мукаммал асарлар туплами. 20 томлик 7-том. “Фан”,Т.:1991 . -422 б.

19. А. Навоий. Маҳбуб ул қулуб. Мукаммал асарлар туплами 14-жилд. “Фан”,Т.: 1998. -147 б.

21. Аскар Махкам. Тазарру.-Т.: “Укитувчи”,1973. - 245 б.

22. Аскар Маҳкам. Ҳақ. “Адиб”, Душанбе. 1998. – 210 б.
23. А.Маҳкам. Аналҳақ. “Абдулла Қодирий”, Т.: 2003.- 136 б.
24. Абу Лайс Ас-Самарқандий. Танбеҳул ғофилийн. Мовар. Т.: 2003. - 218 б
- 25.Tabriz daftari "Al-Hudo" xalqaro nashriyoti,"Minhoj" , Т.: 2004. -132b

III Ilmiy jurnallardagi maqolalar :

- 26.Abdulla A`zam .Ozod domla formulalari.Tafakkur jurnali, 2004,3-son.23-b.
27. Alisher Narzullo. Har lahzada tazarru.www.ziyo.com.
28. Asqar Mahkam Men yarmi – fors , yarmi turkiyman www.fikr.uz.
29. Д.Кувватова. «Таважжух» поемасида мактуб-монолог» Филология масалалар 7. Тошкент: "Фан" нашриёти, 2013, 288 бет, 90- 93- бетлар.
30. Ikrom Otamurod .Men endi ketarman pinhon va yolg`iz. www.fikr.com
31. Jabbor Omonturdiyev. So`zning tasavvufiy talqini. Tafakkur .2000. 28- bet;
32. Nabijon Boqiy . Asqar Mahkam Kofarnihonga qaytdi.www.ziyo.uz.
33. Nabijon Boqiy. Bolalikdan bolalikka qaytgan shoir.www.kutubxona.uz
34. Ne`matullo Ibrohim. “Men shoir emas shunchaki rostgo`y edim”www.ziyo.uz
35. Odil Ikrom. Qahraton qishlarda vidolar aytdim.www.fikr.uz
36. Xurshid Davron “Osmonga talpingan shoir”www.ziyo.uz.
37. Yusufali Shonazarov.Goh so`yladik uryon , gohi munaqqa.www.fikr.uz

Avtoreferatlar:

38. Sodiqova R. Hozirgi o`zbek dostonlarida mashhur siymolar obrazining yaratilishi va badiiy izlanishlar. Avtoreferat. – Т. : O`zbekiston, 2002, - 191-b.

Lug`atlar:

39.Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброхимова С. Адабиётшунослик терминлари лугати. – Тошкент : Укитувчи,1970.-299 б.

40.Узбек тилининг изохли лугати .- Тошкент: Давлат илмий нашриёти.www.ziyouz.com.kutubxona.

41. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T: Akademnashr. 2010. 173-b.

Internet saytlari :

42.www.literature.uz

43.www.google.co.uz, www.rambler.ru

44.[www. Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)

45.<http://fikir.uz/posts/adabiyot>

MUNDARIJA

Kirish	2-5
I bob Asqar Mahkam iste`dodli shoir.	5-47
1.1. Asqar Mahkam hayoti va ijodi haqida	5-17
1.2. Shoir she`rlarining badiiy xususiyatlari.	17-47
II bob Asqar Mahkam dostonnavis.	48- 65
2.1. Shoirning Boburga bag`ishlangan dostoni	48- 60
2.2. Asqar Mahkam dostonlaridagi badiiy san`atlar	60- 65
Xulosa	66-67
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	68-70

